

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

TO'YCHIYEV SOHIBJON ERKINOVICH

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KESIM O'RNIDA KELGAN
PROSESSUAL SINTAKSEMALAR TIPOLOGIYASI**

Mutaxassislik: 5A - 220102

Lingvistika (ingliz tili)

Filologiya magistri darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ish ko'rib chiqildi va
himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri

Sh.S. Ashurov

18 may 2012 y.

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi Ashurov Sh.S.

SAMARQAND – 2012

Тўйчиев Соҳиб Эркиновичнинг «Инглиз ва ўзбек тилларида кесим ўрнида келган процессуал синтаксемалар типологияси» мавзусида филология магистри даражасини олиш учун ёзилган магистрлик диссертациясига илмий раҳбар

ХУЛОСА СИ

Маълумки, дарслик ва ўқув қўлланмаларида, шунингдек, кўпчилик илмий монографияларда бош бўлақлар, хусусан, кесим анъанавий усулда, яъни тасвирий методлар ёрдамида тавсифланади. Ҳолбуки, кесим турли туркумга мансуб тил бирликларининг муайян модел доирасидаги синтагматик вазифасини белгиловчи лингвистик бирлик бўлиш билан бир каторда, мазкур мақомга эга бўлган ҳар бир элементнинг гапдаги семантик маркази сифатида ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан қаралганда Тўйчиев Соҳиб Эркиновичнинг мазкур магистрлик диссертацияси учун танланган мавзу алоҳида эътиборга лойиқдир. Зотан, муаллиф ўз ишида инглиз ва ўзбек тилларида гап структурасидаги синтактик бирликларни маълум система асосида қиёсий типологик жиҳатдан таҳлил қилар экан, унда ҳар бир бирликнинг дифференциал синтактик ва семантик белгиларини аниқлашга алоҳида эътибор қаратади.

Ушбу диссертация инглиз ва ўзбек тилларида бош бўлақлардан кесим ўрнида келган синтактик бирликларнинг қиёсий типологик жиҳатларини ўрганиш, улардаги изоморфлик ва алломорфлик хусусиятларини аниқлашга бағишланган. Мазкур мавзунинг долзарблиги гапдаги синтактик бирликларни таҳлил қилишда аниқ лисоний методлардан фойдаланилганлиги, ҳамда тил универсалияларини яратилганлиги билан изоҳланади.


Магистрант С.Тўйчиев инглиз ва ўзбек тилларида кесим масаласини анъанавий грамматикаларда таснифланишидан фарқли ўлароқ, компонент ва синтаксемаларга ажратиб, қиёсий типологик жиҳатдан таҳлил қилишга ҳаракат қилган. Компонентларга ажратиб таҳлил қилишда асосан гапдаги бирликлар орасидаги ўзаро синтактик алоқалар юнкцион моделларда берилиб, ҳар бир элементнинг дифференциал синтактик белгилари ва

уларнинг морфологик ифодаланиш шакллари компонент моделлар орқали кўргазмали равишда ёритилган. Кесим вазифасидаги элементларни синтаксемаларга ажратиб таҳлил қилишда гапда иштирок этган ҳар бир элементнинг дифференциал синтактик-семантик белгилари, уларнинг маълум синтактик алоқалар асосида қандай синтаксемалар билан боғланиши ва уларнинг вариантлари синтактик сатҳда қиёсий типологик жиҳатдан ўрганиб чиқилган.

Маълумки синтаксемаларга ажратиб таҳлил қилишда субстанциаллик, процессуаллик ва квалификативлик каби категориал дифференциал синтактик-семантик белгиларга асосланиб иш кўрилади. Муаллиф ушбу тадқиқотида кесим вазифасидаги бирликларни процессуал синтаксемалар асосида ўрганиб чиқишга ҳаракат қилган.

Умуман олганда мавзу тўлиқ ёритилган, чиқарилган хулосалар ишнинг умумий моҳиятини ўзида тўла акс эттира олади. Шу боис ушбу ишнинг яқунланганини алоҳида қайд этган ҳолда, магистрлик даражасини олиш учун ҳимоясига тавсия этиш мумкин деб ҳисоблайман.

**Илмий раҳбар: Инглиз тили ўқитиш
методикаси ва амалиёти
кафедраси мудири**



ф. ф. н. Ш.С. Ашуров



Тўйчиев Соҳиб Эркиновичнинг «Инглиз ва ўзбек тилларида кесим ўрнида келган процессуал синтаксемалар типологияси» мавзусида филология магистри даражасини олиш учун ёзилган магистрлик диссертациясига

ТАҚРИЗ

Ушбу магистрлик диссертацияси инглиз ва ўзбек тилларида бош бўлақлардан кесим ўрнида келган синтактик бирликларни қиёсий типологик жиҳатларини ўрганишга, улардаги изоморфлик ва алломорфлик хусусиятларини аниқлашга бағишланган. Мазкур мавзунинг долзарблиги синтактик бирликларни таҳлил қилишда аниқ лисоний методлардан фойдаланганлиги, ҳамда тил универсалияларини яратилганлиги билан изоҳланади.

Диссертация кириш, уч боб, хулоса, фойдаланилган адабиётлар ва шартли белгилар рўйхатидан иборат. Ишнинг умумий ҳажми 68 саҳифа.

Ишнинг «Умумий тавсифи»да мавзунинг долзарблиги, тадқиқот даражаси, мақсад ва вазифалари, илмий янгилиги, назарий ва амалий аҳамияти, жорийланиши, тадқиқот методлари хусусида мулоҳазалар баён этилган бўлиб, магистрлик диссертацияси талаблари даражасида расмийлаштирилган.

Диссертациянинг биринчи боби «Типология ва гап бўлақлари муаммоси» деб номланиб, унда ёритилиш мақсад қилиб қўйилган муаммолар типология ва унинг моҳияти, типологиянинг тадқиқот тамойиллари, ҳозирги кунда тилшуносликдаги бош бўлақлар муаммосига қаратилганлиги билан ажралиб туради.

Ишнинг иккинчи боби «Инглиз ва ўзбек тилларида кесим турларининг ифодаланиши»га бағишланади. Унга кўра, инглиз тилида кесими содда феъл билан ифодаланган гаплар, кесими феъл+феъл (шахсиз шакли) билан ифодаланган гаплар, кесими модал феъл+инфинитив билан ифодаланган гаплар, кесими to be + от билан ифодаланган гаплар, кесими to be + сифат билан ифодаланган гаплар, кесими to be + сифатдошнинг ўтган замон шакли билан ифодаланган гаплар, кесими to be + бошқа сўз туркумлари билан ифодаланган гаплар ва шунингдек ўзбек тилида кесими содда феъл, феълдан тусланган шакллар, от кесим, яъни бошқа сўз туркумлари ҳамда бошқа шакллар билан ифодаланиши кўрсатиб ўтилган.

Учинчи боб «Инглиз ва ўзбек тилларида кесим ўрнида келган элементларни процессуал синтаксемаларга ажратиб таҳлил қилиш» деб номланади. Ушбу бобдан кўзланган мақсад кесим ўрнида келган бирликларнинг дифференциал синтактик ва семантик белгиларини аниқлаш, уларнинг типологиясини ҳамда ҳар иккала тилларда кесим ўрнида келган синтактик элементлардаги изоморфлик ва алломорфлик кўринишларини топиш, уларнинг ифода вариантларини ойдинлаштириш, ҳамда у ёки бу синтактик алоқалар ёрдамида қандай дифференциал синтактик ва семантик белгилар билан бирика олишини аниқлашдан иборатдир. Муаллиф гапларни процессуал синтаксемаларга ажратиб таҳлил этиш жараёнида уларнинг процессуаллик категориал белгига асосланган ҳолда, кесимнинг бир неча нокатегориал белгилари баён қилинган.

Диссертациянинг ҳар бир боб якунида алоҳида-алоҳида хулосалар ёзилган. Бобларда баён этилган илмий-назарий мулоҳазалар ва уларнинг якунида келтирилган хулосалар ишнинг умумий хулосасида изчил тарзда умумлаштирилган. Ишда келтирилган илмий ва бадий манбалар рўйхати ҳам магистрлик диссертацияси талабига мос келади.

Диссертацияда санаб ўтилган ижобий жиҳатлар анча салмоқли бўлса-да, бир қатор камчиликлар ҳам кўзга ташланади. Хусусан, бизнинг назаримизда, улар қуйидагилардан иборат:

1. Ишдаги имловий ва услубий хатолар учрайди.
2. Диссертацияда фойдаланилган илмий адабиётларнинг аксарияти 70-80 йилларда нашр қилинган манбалардан иборатдир. Шу боис иш кейинги йилларда инглиз, айниқса ўзбек тилшунослигида яратилган ва бевосита мавзуга алоқадор янги адабиётлар билан бойитилса мақсадга мувофиқ бўларди.

Албатта, кўрсатилган бу жузъий камчиликларни тезда бартараф этиш мумкин. Шу боис ишни якунланганлигини алоҳида эътироф этган ҳолда уни ҳимояга тавсия этиш мумкин. Унинг муаллифи эса филология магистри даражасини олишга лойиқ деб ҳисоблайман ишни юқори баҳолаш мумкин.

Такризчи:


проф. Ў. У. Усмонов
TASDIQLAYMAN,
Sanoat KADRLAR
BO'LIM BOSHIG'I

проф. Ў. У. Усмонов



MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TIPOLOGIYA VA GAP BO'LAKLARI MUAMMOSI.....	8
1.1. Qiyosiy tipologiya va til qatlamlari.....	8
1.2. Tilshunoslikda gap bo'laklari muammosi.....	15
Birinchi bobga xulosa.....	19
II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KESIMNING	
IFODALANISH USULLARI.....	21
2.1. Ingliz tilida kesim turlari va ularning ifodalanish	
usullari.....	21
2.2. O'zbek tilida kesim turlari va ularning ifodalanish	
usullari.....	25
Ikkinchi bobga xulosa.....	28
III BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KESIM O'RNIDA KELGAN	
ELEMENTLARNI PROSESSUAL SINTAKSEMALARGA	
AJRATIB TAHLIL QILISH.....	31
3.1. Aktiv sintaksemalar tipologiyasi.	33
3.2. Aktiv negativ sintaksemalar tipologiyasi	40
3.3. Aktiv derektiv (yo'naltirilgan) sintaksemalar	
tipologiyasi.....	43
3.4. Aktiv modal va aktiv modal negativ sintaksemalar	
tipologiyasi.....	47
3.5. Stativ sintaksemalar tipologiyasi	52
3.6. Ekzistensial sintaksemalar tipologiyasi	54
Uchinchi bobga xulosa.....	56
XULOSA.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	61
Ishda foydalanilgan belgilar.....	67

KIRISH

Axborot asri deb atalmish XXI asrda ilm, fan va texnika kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bugungi kunga kelib ilm, fan va texnikaning yanada mukammal, yanada yangi ko'rinishlarini ixtiro etish va ilm borasida yangi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish jahon mamlakatlarining yosh-barkamol avlodlari oldiga vazifa qilib qo'yilmoqda. Jumladan, bizning mustaqil davlatimiz ham shunday dolzarb muammolarni biz yoshlar oldiga ustuvor vazifa qilib qo'ygan. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Bilimdan professional jihatdan savodli hamda g'ayratli, shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatining chinakkam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatining ulkan namunaviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim".¹

Mavzuning dolzarbligi. Tilshunoslikda gap bo'laklaridan bosh bo'laklarning talqini ancha munozarali hisoblanadi. Shunday ekan, biz ingliz va o'zbek tillari misolida bosh bo'laklardan biri kesim vazifasidagi elementlarni tahlil qilmoqchimiz. Buni biz ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tipologik jihatdan ko'rib chiqishni lozim topdik. Odatda an'anaviy grammatikadan bizga ma'lumki, gap ma'lum bo'laklarga ajratib tahlil qilinadi. Hozirga qadar tilshunoslikda gap bo'laklari an'anaviy usulda, ya'ni tasviriy metodlar yordamida tavsiflanib kelinmoqda. Biroq, uni tasniflashda ikkala tilda ham aniq bir to'xtamga kelinmagan. Bundan tashqari, zamonaviy tilshunoslikda til obyektlari, ya'ni turlicha qatamlar, kesim o'rnida kelgan sintaktik birliklar qiyosiy tipologik jihatdan deyarli o'rganilmagan.

Shularni e'tiborga olgan holda biz ikkala tilda kesim vazifasidagi elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishni lozim topdik. Gaplarning bunday sintaktik-semantik jihatdan tasniflanishi hozirgacha yoritilmagan ko'pgina

¹ Каримов И.А. "Баркамол авлод орзуси". "Шарк" нашриёти. - Т.: Ўзбекистон. 1999.-230б.

sintaktik jumboqlarning yechimini topish va ularning ayrim xususiyatlarini aniqlash kabi bugungi kunning dolzarb masalalarini yorqin tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Dissertasiyaning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi talqinidan iborat bo'lib, shu maqsad yo'lida quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi:

- qardosh bo'lmagan tillar (ingliz va o'zbek tillari) tizimida kesim o'rnida kelgan elementlarni qiyosiy tipologik jihatdan tasniflash;

- ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan elementlarni differensial sintaktik-semantik belgilarini o'xshashlik va noo'xshashlik xususiyatlarini belgilash;

- gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini tipologik jihatdan o'rganish;

- har ikkala tilda aniqlangan sintaksema variantlarini oydinlashtirish;

- qiyosiy-tipologik jihatdan aniqlangan sintaksemalarning u yoki bu sintaktik aloqalar bazasida qanday sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ushbu tadqiqot obyekti hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillari sintaksisi tashkil etadigan bo'lsa, predmetini esa hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillari sintaksisidagi kesim turlaridan iboratdir.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqotning metodologik asosini milliy istiqlol mafkurasi go'yalari, Prezident I.A.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining til, ta'lim va fanni rivojlantirish borasidagi ko'rsatma va qarorlari hamda tadqiqotning nazariy aspektlari bo'yicha A.M.Muxin, A.N.Smirniskiy, B.A.Ilish, A.A.Peshkovskiy, G.V.Kolshanskiy, V.D.Arakin, I.I.Meshaninov kabi jahon tilshunoslarining qiyosiy tipologiya, semantika, grammatika, umumiy va amaliy tilshunoslikka oid ishlari, shuningdek o'zbek tilshunosligidagi J.B.Bo'ronov, A.N.Nurmonov, A.G'ulomov, A.Hojiyev va boshqalarning ishlari asos qilib olindi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, transformasiya ya'ni eksperiment metodlaridan foydalanildi. Bunda kesim vazifasida keladigan elementlarni komponentlarga ajratib tahlil qilish sintagmatik rejada, sintaksemalarga ajratib tahlil qilish esa, paradigmatic rejada olib borildi. Shuningdek, tahlil jarayonida transformasiya metodining bir necha boshqa amallari ham qo'llanildi.

Tadqiqot materiallari. Tadqiqot materialini nomzodlik dissertatsiyalari, ensiklopediya, ilmiy maqolalar to'plami, jurnal, internet sayti, ilmiy va badiiy adabiyotlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- sintaksemalarning sistem munosabatlari asosida ishlab chiqilgan natijalar qardosh bo'lmagan tillarda kesimni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish istiqboliga keng yo'l ochib berishini ko'rsatdi;

- gap qurilmasidagi sintaktik birliklarning mazmuniy xususiyatlari va ular o'rtasidagi o'xshash hamda farqli tomonlar xususida atroflicha mulohazalar bildirildi;

- gapda kesim vazifasida kelgan elementni boshqa elementlardan farqlagan holda ularning sintaktik qatlamdagi semantik maydoni aniqlandi;

- ishda ingliz va o'zbek tili materiallari zaminida kesim o'rnida kelgan sintaksemalar qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishda gap strukturasidagi sintaktik birliklarning semantikasi sintaksemalarga ajratib tahlil qilish asosida yoritiladi. Bajarilgan tahlil gaplarning umumiy nazariyasini yanada boyitishga o'zining muayyan hissasini qo'shadi. Ishdagi tahlil natijalaridan nazariy, amaliy grammatikalar, sintaksem tahlil bo'yicha maxsus kurs sifatida yuqori bosqich talabalari uchun o'quv - uslubiy qo'llanmalar tuzishda foydalanish mumkin.

Ishchi faraz. Kesim vazifasida ⁶⁶kelgan elementlarni har ikkala tilda paradigmatic va sitagmatik rejada component va sintaksemalarga ajratib sistemali tahlil qilish ularning variantlari va ularga xos izomorflik hamda allomorflik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Gapdagi sintaktik birliklarning bunday kompleks tahlili tilning sintaktik qatlamida ularning o'ziga xos turli semantic xususiyatlarini modellashtirish asosida atroflicha yoritib berish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertsion ishning ishonchliligi quyidagilardan iborat:

- aniq bir lingvistik tahlil metodiga asoslanganligi hamda kesim vazifasidagi prosessual sintaksemalarni ushbu metod yordamida aniqlash;
- kesim vazifasidagi birliklarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish hamda nazariy jihatdan isbotlash;
- ingliz va o'zbek tili materiallari asosida kesim o'rnida kelgan sintaksemalar qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish

Muhokamaga qo'yiladigan mulohazalar. Sintaksemalarning sistem munosabatlari asosida ishlab chiqilgan natijalar qardosh bo'lmagan tillarda kesimni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish istiqboliga keng yo'l ochib berishini ko'rsatdi;

- gap qurilmasidagi sintaktik birliklarning mazmuniy xususiyatlari va ular o'rtasidagi o'xshash hamda farqli tomonlar xususida atroflicha mulohazalar bildirildi;

- gapda kesim vazifasida kelgan elementni boshqa elementlardan farqlagan holda ularning sintaktik qatlamdagi semantik maydoni aniqlandi;

- ishda ingliz va o'zbek tili materiallari zaminida kesim o'rnida kelgan sintaksemalar qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilindi.

Dissertasion ishning aprobasiyasi. Mazkur magistrlik dissertasiyaning asosiy mulohazalari ingliz tili o'qitish metodikasi va amaliyoti kafedrasining yig'ilishlarida bajarilgan ishlar hisobot shaklida muhokama qilingan.

Dissertasion tadqiqotning nashr ettirilganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha Samarqand davlat chet tillar instituti magistr va talabalar ilmiy-nazariy anjumanlarida (2011-2012) ma'ruzalar bilan qatnashildi. Tadqiqot mavzusiga doir "Gapdagi birliklarni komponentlarga ajratib tahlil qilish metodining o'ziga xos xususiyatlari" nomli ilmiy maqola "Chet tili o'qitish metodikasining didaktik asoslari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Samarqand, 2011 yil 12-13 aprel) to'plamining II jild 119-120 betlarida, "Ingliz va o'zbek tillarida kesim tahliliga doir" nomli ilmiy maqola "Tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari" (Samarqand 2012, 87-88 betlar oltinchi chiqishi) ilmiy maqolalar to'plamida chop ettirilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertasiya 68 bet, kirish, uch bob, har bir bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxati hamda foydalanilgan shartli belgilarning izohidan iborat.

I^{II} BOB

TIPOLOGIYA VA GAP BO'LAKLARI MUAMMOSI

1. 1. Qiyosiy tipologiya va til qatlamlari

Tipologiya fani tillar sistemalarining turli iyerarxik birliklarini qiyosan umumlashtirib o'rganadi va mazmun rejaga muvofiq, formal tipologiya, semantik tipologiyaga bo'linadi.

Tipologiya bu turli ifoda rejasi birliklarining tipologik xususiyatlarini o'rganadi. Formal tipologiya fonologik, morfologik va sintaktik tipologiyadan tashkil topadi.¹

Formal tipologiya asosan tilning morfologik va sintaktik yaruslarining formal tomonlariga ko'proq ahamiyat berib, ularning ma'lum formal belgilarini turli tillar sistemasida o'rganadi.

Semantik tipologiya mazmun rejasi birliklarini tipologik tadqiq qiladi. Mazmun rejasi deganda tilning semantik strukturasi tushuniladi. Tipologik qiyoslash semantik qiyoslashni ham o'z ichiga oladi. Semantik qiyoslash semantik tipologiya asosida yuzaga keladi. Semantik tipologiya semantik kategoriyalarning ifodalanishidagi mushtaraklikni mavhumlashtiradi va ma'lum tushunchalarning turli tillar sistemasi ifoda rejasi birliklari vositasida talqin etilishini o'rganadi. Turli tillar lug'atlarini tuzishda, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda semantik tipologiya qonunlarining amaliy ahamiyati kattadir.

Tillar har xil bo'lsa ham ularning sistemasidagi ma'lum semantik kategoriyalarni ifodalovchi so'zlar muayyan guruhlarni tashkil qiladi. Semantik tipologiyada ba'zi kategoriyalar umumiy, ba'zilari esa faqat ayrim tillargagina xos bo'ladi. Semantik tipologiya semantik maydonni aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Har bir tushuncha turli qo'shma so'zlar, so'z birikmalari vositasida yoki ayrim tushuntirish bilan tarjima qilinadi. Masalan, o'zbek tilidagi *opa* rus tiliga *starshaya sestra*, *singil mladshaya sestra* deb tarjima qilinadi. Ammo *katta opam*,

¹ Б.Ю.Городецкий. К проблеме семантической типологии. Из-во МГУ. 1969, -С.125-126.

kichik opam, katta singlim, kichik singlim atamaları faqat tushuntirish bilan ifodalanishi mumkin. Semantik tipologiyaga ko'p tillardagi *tabu (taboo)*ni misol keltiramiz. *Tabu* dunyodagi juda ko'p tillarda ishlatiladi. Masalan, o'zbek tilida *bo'ri*ning nomini atamaslikka harakat qilib *qashqir* so'zi ishlatilsa, *chayon, biy, qora qurt* o'rnida *gazanda, oti yo'q* so'zlari ishlatilgan. Tabu rus, ingliz va boshqa tillarda ham uchraydi. Masalan, rus tilidagi *medved (ayiq)* so'zi ikki marta tabulashgan. Birinchi marta umumhind - yevropa tilidagi orktos so'ziga mos keluvchi rus so'zi *medved (medoyed, meduyed)* so'zi bilan almashtirilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda *medved* so'zi o'rnida, *Mishka, Toptigin, Mixail Ivanich, Kosolapiy, Potapich, Maxnach, Lesnik, Xozyain* kabi so'zlar ishlatiladi.

Til sathlarining o'zaro aloqasiga ko'ra tipologiyaning quyidagi bo'limlari mavjud:

- a) *fonologik va fonetik tipologiya,*
- b) *morfologik tipologiya,*
- v) *sintaktik tipologiya,*
- g) *leksik tipologiya.¹*

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari sosiolingvistik tipologiya, grafik tipologiya, metodik tipologiyalar ham uchraydi. Ammo biz eng muhimlarigagina to'xtalib o'tmoqchimiz.

Fonologik tipologiya tillarning fonologik yarusi birliklari sistemasini tashkil etuvchi belgilarni o'rganadi. Fonologik tipologiya umumiy differensial fonologik belgilarni, fonemalar xususiyatlarini, ularning so'z strukturasidagi sintagmatik aloqalarini, tovushlarning fonematik xususiyatini, ularni guruhlash usullarini, o'zaro oppozisiyalarini umumlashtirib o'rganadi. Fonologik xususiyatlariga ko'ra tillarni ma'lum guruhlariga bo'lish ham tipologiyaning shu bo'limiga oid (*masalan: tonal va tonal bo'lmagan tillar tone languages and non-tonal languages*).

¹ Б.Ю.Городецкий. К проблеме семантической типологии. Из-во МГУ. 1969, стр. 125-129.

Fonetik tipologiya turli tillarda fonetik yarus birliklarini: unli va undosh tovushlarni talaffuz etishdagi o'xshashlikni yoki farqni konkret fizik jihatdan o'rganuvchi bo'limdir. Ayrim unlilar labni cho'zib talaffuz etilganida, (h) tovushi (g') tarzida talaffuz etilganida, fonetik tipologiyaga ko'ra intonasiyada qardosh va qardosh bo'lmagan tillarda o'xshashlik bo'lishi mumkin. Masalan, qardosh emasligidan qati nazar kavkaz xalqlari uchun muayyan artikulyasiya yoki aksent xos bo'lsa, O'rta Osiyo respublikalari xalqlari uchun boshqa bir aksent xosdir. Qardosh tillarda ham ma'lum xususiyat yoki umumiylik bo'lmashligi mumkin. Masalan, R.X. Robins fransuz, nemis, daniya, shved, norvegiya tillarida til oldi unlilari talaffuz etilganida labning doira shaklida old tomonga cho'zilishini, ingliz tilida esa bu xususiyatning yo'qligini ta'kidlaydi.¹

Qiyosiy tarixiy metod olib borgan fonetik tadqiqotni asosan fonetik tipologiyaga kiritish mumkin. Qiyosiy tarixiy metodda fonologik qonuniyatlar deyarli o'rganilmagan bo'lsa-da, fonetik tipologiya fonologik tipologiyaga qarshi qo'yilmaydi. Aksincha ular bir-biri bilan bog'liqdir. Fonetik tipologiya tovushlarni eksperimental o'rganish bilan ham shug'ullanadi.

Tillarni morfologik xususiyatiga binoan tasniflash va ma'lum morfologik kategoriyaning turli tillarda ifodalanishidagi universallikni aniqlash bilan morfologik tipologiya shug'ullanadi. Morfologik tipologiya morfologik kategoriylarning ifodalanishidagi izomorfizm va allomorfizmni turli tillar sistemasida tahlil qilib umumlashtiradi, grammatik ma'noni ifodalovchi prefiksial va infiksial qo'shimchalarning har xil qo'llanish usullarini umumlashtirib o'rganadi. Masalan, rod, son, kelishik, shaxs, zamon, aspekt kabi morfologik kategoriylarning turli tillarda ifodalanishi morfologik tipologiyaning obyekti hisoblanadi. Morfologik tipologiya ko'proq, morfemik yarus chegarasidan chiqarilmay o'rganiladi. Shuning uchun turli tillar sistemalari chog'ishtirilganida, turli yarus birliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Р.Х.Робинс. Ancient and Mediaeval Grammatical Theory in Grammar. London, 1951, p. 62-76.

Sintaktik tipologiya tillarning sintaktik yarusini tashkil qiluvchi birliklarni tipologik tasniflaydi. Sintaktik tipologiya fonologik va morfologik tipologiyalarni o'z ichiga oladi. Tipologiya bu turida so'z birikmalari, gapning semantik va formal turlari, so'z tartibining erkin yoki turg'un ekanligi, ega, kesim va to'ldiruvchilarning o'zaro aloqasi, intonasiyaning ma'noga ta'siri, suffiks, prefiks va boshqa qo'shimchalarning turli so'z tartiblari bilan borliqligi o'rganiladi. Morfologik va sintaktik tipologiya grammatik tipologiyani tashkil qiladi.

Leksik tipologiya leksik birliklar xususiyatlari, strukturasiga ko'ra o'xshashligi va farqini, turli turkumga taalluqli so'zlarning leksik xususiyatlarini o'rgatadi.

So'zlarning qanchalik ko'p va kam qo'llanilishini, boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarning ishlatilishidagi umumiylik hodisalarini ham leksik tipologiya o'z ichiga oladi.

Leksik tipologiya asosiy vazifasi tillardagi leksik konstantalarning ifodalanish usullarini va ularning tipologik umumiyligini o'rganishdan iboratdir.

Keyingi yillarda qiyosiy-tipologik metod qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni o'rganishda yetakchi tahlil uslubi sifatida jahondagi barcha tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib qolmoqda. Zotan, E.Sepirning ta'biri bilan aytganda, o'tgan asrning yigirmanchi yillari oxirida tilshunoslik o'zining ilmiy mavqeyini hind-ovrupa tillarini rekonstruksiya qilish va qiyosiy o'rganishdan boshladi.¹

Lingvistik tipologiya mustaqil nazariy fan sifatida til sistemasining barcha qatlamlarini qiyosiy o'rganish imkoniga ega. Shunday ekan, u tilning barcha qatlamiga xos bo'lgan tipologik kategoriyalarni atroflicha tadqiq etishga jalb qilinmog'i lozim. Tilshunoslikning bu sohasi hind-ovrupa tillarini qiyosiy o'rganish asosida ancha yillar oldin boshlangan.

¹ Сепир Э. Положения лингвистики индоевропейских языков. В кн.: Звегинцев В.А. История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях, ч. II. – М., 1960. – С. 175.

O'zbek tipologlaridan J.Bo'ronovning fikricha, lingvistik tipologiya o'zining tadqiqot obyektiga ko'ra quyidagi bo'limlarga bo'linadi: a) genetik tipologiya; b) areal tipologiya; v) qiyosiy tipologiya; g) struktural tipologiya kabilar. Tipologiya tilshunoslik fanining bir bo'limi hisoblanib, uning barcha sohalari uchun xarakterlidir va u tilshunoslikning har bir sohasini to'qsanimik jihatdan tasvirlash, obyektlarni tasniflash va qiyoslashdan iborat. Bular ko'pgina noaniq hodisalarni o'z ichiga oladi va ular lingvistik va nolingvistik xarakterga ega bo'lishi mumkin.¹

Qiyosiy tipologiyaning vazifasi tillarni qiyosiy yo'l bilan, turli qardosh va qardosh bo'lmagan til tizimlarini bir-biri bilan taqqoslab, tillarning turli yarus birliklari qonuniyatlarini o'rganish, til tizimlaridagi izomorfik, allomorfik belgilarini va tillarning tipologik qardoshligini aniqlashdan iborat. U ikki va undan ortiq konkret tillar tizimini, tillardagi ma'lum kategoriyalarni deduktiv ravishda alohida o'rganadi, tillar tizimidagi lingvistik hodisalarni bir-biri bilan taqqoslab, umumiy tipologik qoida va qonunlar yaratadi.

Ikki til tizimini binar usulida qiyoslashda har bir qiyoslanayotgan til tizimining bayon etilgan materiali alohida-alohida qiyoslanadi. Har bir yarus birligining o'ziga xos xususiyati, boshqa yaruslardagi birliklarning o'zaro aloqalari hisobga olinadi.

Til tizimlarini qiyoslash tilning kichik tizimini qiyoslash natijasida yuzaga keladi. Masalan, tillardagi nisbat kategoriyasi fe'llarning umumiy tizimida kichik tizimi xususiyatini aniqlash uchun avval yagona tizimini tashkil etgan kichik tizimning asosiy belgilarini aniqlash zarur.

Ushbu magistrlik ishida qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan prosessuallik sintaksemalarni tillarda tipologik qiyoslashning umumiy tizimini emas, balki kichik tizimning o'zini olib tahlil qilib chiqishga harakat qilingan.

¹ Буронов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. — М.: Высшая школа, 1983. — С. 33.

Lingvistik iyerarxiyada qardosh bo'lmagan tillar tizimini sinxron tipologik qiyoslashda biror grammatik kategoriya ifodalanishining o'rni va usullarini aniqlash muhim nazariy ahamiyatga ega. Bu birinchidan, har bir qiyoslanayotgan tilni bayon etish jarayonini alohida-alohida tashkil qilish uchun, ikkinchidan, bu tillarning har biriga xos bo'lgan xususiyat umumiy lingvistik universaliya va ba'zi xususiy shakllarining doimiy qonuniy muvofiqlashuvini aniqlash uchun zarur. Ammo, bunday muhim lingvistik tahlilning ko'pgina masalalari hali yetarli darajada hal etilgan emas.

Tillar va til sistemalarini qiyosiy o'rganuvchi fan bo'lgan qiyosiy tipologiya xarakterologiya (characterology) va universal grammatika (universal grammar) fanlarini o'z ichiga oladi.

Xarakterologiya tillarni qiyoslash bilan shug'ullanuvchi nazariy va amaliy fandir. Shu sababli ham uni qiyosiy tipologiyaning bir bo'lagi sifatida talqin etamiz. Xarakterologiya ayrim tipologlar tomonidan tipologiyaga qarama-qarshi qo'yiladi. Struktural tipologiyaga tipologiyaning asosiy predmeti sifatida qarash bunday yanglishuvga olib kelgan. Xarakterologiya mutlaqo tipologiyaga qarama-qarshi qo'yilmasligi kerak, chunki umumiy tipologiyaning yaratilishiga xarakterologiya muayyan hissa qo'shadi.

Xarakterologiya ko'proq biror konkret tilni boshqa til bilan solishtirish natijasida uning xarakterli xususiyatini o'rganadi. Xarakterologiyaning muhim tomoni shundaki, u boshqa tillar bilan solishtirish natijasida konkret tillar sistemasini puxta va sinchiklab o'rganadi hamda aniqlangan lingvistik belgilar ham struktural tipologiya, ham qiyosiy tarixiy metod uchun tayyor material bo'lib xizmat qiladi.

Universal grammatika ham qiyosiy tipologiyaning bir qismi bo'lib, til sistemalarini qiyoslash bilan shug'ullanadi. Universal grammatikada ikki yoki undan ortiq til olinib, ularning biri ikkinchisi yordamida bayon etiladi. Bunda ma'lum kategoriya faqat grammatik yarus bilan chegaralanmay, leksik yarus birliklaridan ham foydalaniladi. Universal grammatika struktural tipologiyadagi

grammatik yarus universaliyasidan shu bilan farq qiladiki, birinchidan, grammatik yarus birligi bilan bog'liq, ikkinchidan, unda universaliya aniqlanayotgan tillar miqdori chegaralanmagan bo'ladi. Ayrim tilshunoslarning fikricha universal grammatikada tanlangan tillardan birida o'rganilayotgan kategoriya aniq bo'lishi kerak. Ammo bu universal grammatikaning bir tomonidir, xolos. Biror kategoriyaning turli yaruslarda ifodalanishi har ikki tilda ham noaniq bo'lishi mumkin. U qiyoslanayotgan tillar sistemasining yaxshi o'rganilganligi yoki yaxshi o'rganilmaganligi bilan bog'liq. Masalan, ko'plik kategoriyasi universal grammatika nuqtai nazaridan o'rganilsa, ko'plik ma'nosini ifodalovchi morfologik markerlar bilangina chegaralanib qolmay, balki leksik yarus birliklari ham tanlanadi. Ko'plik markerlarga quyidagilar kiradi:

1. Ko'plik formasini yasovchi affiksial morfema (ot, olmosh, fe'l va boshqalarda);
2. Son turkimiga kiruvchi so'zlar;
3. Ayrim olmoshlar;
4. Jamlovchi otlar;
5. So'z formalarini o'zgartiruvchi fonetik hodisalar (umlaut: man-men);

Universal grammatika qardosh bo'lmagan tillar sistemalarini qiyoslashda juda qo'l keladi. Undan tashqari, u tarjima nazariyasi, leksikografiya, metodika fanlari uchun juda muhim material yaratib beradi. Til universaliyalarini tuzishda ham universal grammatikadan qisman foydalaniladi. Qiyosiy tipologiya struktural tipologiyadan quyidagicha farq qiladi:

1. Tekshirilayotgan tillar soni chegaralanganligi sababli qiyosiy tipologiya umumiy tipologik qonun va mukammal til universaliyasi yarata olmasa ham, ammo unga zamin yaratadi. Qiyosiy tipologik tadqiqotlar natijasida olingan til sistemasiga oid faktlar tillar universaliyalari va umumiy tipologik qonun yaratishda ishlatiladi;

2. Qiyosiy tipologiya tillar sistemalarini alohida – alohida tadqiq qilish usullarini ishlab chiqadi va qiyoslash usullarini topadi;

3. Struktural tipologiya tillar elementlarining funksiyalarini va o'zaro aloqalarini qiyoslasa, qiyosiy tipologiya esa, til elementlari o'rtasidagi aloqalarni va aniq elementlarni tanlash bilan shug'ullanadi;

4. Qiyosiy tipologiya faqat tillar sistemasidagi o'xshashlikka tayanib qolmay, sistema birliklaridagi turli-tumanlik va ma'lum kategorial ma'nolar ifodalanishidagi yaruslararo farqlarni ham o'rganadi. Masalan, struktural tipologiya til universaliasini gapda yaruslarga ko'ra aniqlaydi. Har bir yarus birligini boshqa tillarda faqat o'sha yarus birligi bilan taqqoslaydi. Qiyosiy tipologiya esa biror kategoriyani turli yarus birliklari vositasida ifodalanish usullarini ko'rib chiqadi;

5. Qiyosiy tipologiyada tekshirilayotgan tillar soni chegaralangan bo'ladi;

6. Qiyosiy tipologiya ham nazariy, ham amaliy tomonini ko'zlasa-da, ko'proq u praktik va metodik maqsad uchun xizmat etadi.

Demak, qiyosiy tipologiya struktural tipologiyadan farq qilib, xarakterologiya va universal grammatikani o'z ichiga oladi.

Mazkur ishda ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasini talqin qilish uchun har ikkala tillardagi gaplarda shakl jihatdan kesim o'rnida kelgan elementlarni boshqa elementlar bilan bo'lgan sintaktik aloqalarini va ularning differensial-sintaktik belgilarini aniqlash, kesim o'rnida kelgan elementlarni sintaktik yarusda semantik belgilarini topish, ya'ni o'sha elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlab, ularning variantlarini inventarizasiya qilish hamda kesim o'rnida kelgan elementlarning har ikkala tilda izomorflik va allomorflik xususiyatlarini aniqlash ko'zda tutilgan. Albatta, bunday yondashuv tillarni qiyosiy o'rganishda yangicha bo'lib, bundan asosiy maqsad muayyan sintaktik tipologik kategoriyalar yaratishdir.

1. 2. Tilshunoslikda ⁶⁶gap bo'laklari muammosi

Gaplar odatda so'zlar birikmasidan yoki ayrim so'zdan tashkil topadi. Gap bo'lagi haqidagi mulohazalar esa bir necha so'zdan tashkil topgan gaplar ustida bo'ladi. Chunki, shunday holdagina gap bo'laklari to'g'risida va ularning sintaktik vazifalari haqida fikr yuritish mumkin. Birdan ortiq so'zlardan tarkib topgan gaplarning yig'iq tipida predikativlik munosabati, yoyiq turida esa yana boshqa sintaktik munosabatlar ro'yobga chiqadi. Gap bo'laklari ana shunday tipdagi gaplarga oiddir.

Gapdagi har bir bo'lakning ma'lum ma'no va shakli bo'ladi. Ular quyidagilar bilan xarakterlanadi: 1) o'zaro sintaktik munosabatga kirisha oladigan so'zlar yoki so'z birikmalari orqali ifodalanadi; 2) shaxs, kesimlik, kelishik affikslari va ko'makchi kabi vositalar bilan birga kela oladi; 3) ma'lum tartib bilan joylashadi; 4) alohida ohangga ega bo'ladi.

Gap tuzilishining asosiy vositalaridan bo'lgan intonatsiya turli ma'no ottenkalarining ifodalanishida ham ma'lum rol o'ynaydi. Bu hol logik urg'u bilan bog'liqdir. Shaxs, kesimlik, kelishik affikslari, ko'makchi singari vositalar bilan qo'llangan gap bo'laklarining grammatik vazifalari ancha qat'iy bo'ladi. Chunki, bu vositalar ma'lum so'zning qaysi gap bo'lagi ekanligini har bir o'rinda ham ko'rsatib turadi. Demak, biror so'z yoki so'z birikmasining gap bo'lagi sifatida shakllanishida va ularning vazifasini belgilashda maxsus shakllar ham katta rol o'ynaydi. Shular orqali gapning ega, kesim, to'ldiruvchi, hol hamda aniqlovchi kabi bo'laklari shakllanadi. Odatda bosh kelishikdagi predmet nomlari, yo shunday kelishikdagi birikmalar ko'pincha o'zlariga ergashgan fe'l, sifat, shuningdek, birikmalar orqali ifodalangan kesimlarga nisbatan ega bo'lib keladilar; gapning ko'proq fe'llar, o'rni bilan ot guruhidagi so'zlar yoki birikmalar orqali ifodalangan bo'laklari egaga moslashib va u bilan bog'lanib kesim holatini oladi. Ot yo birikmalarning maxsus kelishik yoki ayrim ko'makchilar bilan qo'llanishi, aniqlovchi yo hollik ma'nolarini anglatmaganda, to'ldiruvchi vazifasini bajaradi; ravishlar yoki vazifa jihatdan unga yaqin bo'lgan vosita kelishikli iboralar gapning

holli bo'laklari bo'lib keladi; biror bo'lakka ergashgan sifatlar va qaratqich kelishikli so'zlar hamda aniqlanmishga bog'langan belgilersiz otlar aniqlovchi kategoriyasini ifodalaydi.

Gap strukturasida biror bo'lak bo'lib kelish va belgili vazifani bajarish qismlarning umumiy sintaktik-semantik munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Bu holat, xatto bir shakldagi gap bo'lagining turli vazifada kelishida ham ko'rinadi.

Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda gapning sintaktik talqini xususida so'z yuritilganda gap bo'laklariga ajratib tahlil qilish tushuniladi. Gap bo'laklarining bunday tavsifi tilshunoslikda XX asrning o'rtalariga qadar sintaktik tahlil jarayonida yetakchi rol o'ynardi.

A.Nurmonovning fikricha, sistem tilshunoslikda gapning struktur elementlari gap bo'laklari yoki sintaktik pozisiya nuqtai nazardan, propozitiv struktura elementlari esa obyektiv reallik strukturasiga nisbatan izomorflik, kommunikativ (aktual) struktura tema (ma'lum) va rematik (yangi), modal struktura obyektiv va subyektiv munosabatlari jihatdan o'rganiladi.¹ Darhaqiqat, har bir strukturaning o'ziga xos elementlari mavjud bo'lib, bu elementlar faqat shu struktura darajasidagina o'zaro assosiativ va sintagmatik aloqada bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, an'anaviy tilshunoslikdagi ayrim muammolarning sababi aniq bo'ladi. Xususan, an'anaviy tilshunoslikda gapning sintaktik tahlili uni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish bilan chegaralanadi. Bunday tahlil gapning shakliy tomonini tekshirish deb hisoblanadi. Mantiq tilshunoslari esa gap elementlarini ega o'rnida «subyekt», kesim o'rnida «predikat» kabi lisoniy atamalar yordamida tahlil qiladi. Lekin, bu borada ega bilan subyekt, kesim bilan predikat o'rtasidagi o'xshashlik tomonlar hamda ularning bir-biridan farq qilish muammosi anchagina bahslarga yo'l ochib berishi e'tibordan chetda qoladi. Masalan, rus mantiqiy tilshunosi F.I. Buslayevning fikriga ko'ra, «Tilda egaga bosh kelishikda kelgan ot mos keladi... ba'zan ega va kesim boshqa so'z

¹ Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари, Жл.: Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1988. -№5, 22-23 б.

turkumlari bilan ifodalanadi, lekin har holda egani anglatgan soʻz ot maʼnosini, kesimni anglatgan soʻz esa feʼl maʼnosini oladi».¹ Shunday ekan, gapda ega har doim bosh kelishikda kelib, faqat subyektни ifodalasa, kesim feʼl bilan ifodalanib, predikat boʻlib kelsa va ularda bir xillik mavjud boʻlsa, bosh boʻlaklarni har xil atamalar bilan atashga nima majbur qiladi, degan savol tugʻiladi.

Psixologik yoʻnalish himoyachisi akademik A.A.Shaxmatovning yozishicha, «... psixologik subyekt tasavvurdek aniqlanadi, u oʻz tabiatiga koʻra, predikat tomonidan ifodalangan iironing hokimidir».² Bu bilan olim gapdagi predmet nomi har doim oʻzi bilan birikib keladigan feʼlga yoki sifatga nisbatan grammatik ega hisoblanadi, demoqchi. Demak, predmet haqida bildirilgan fikr predikat tomonidan anglashilgan psixologik subyekt, belgi haqida yuritilgan fikr esa psixologik predikat boʻlib qolaveradi.

A.A.Peshkovskiy esa «... agar kesim ish-harakatni predmet tomonidan bajarilishini anglatga, ega esa harakatni bajaruvchi predmetni anglatadi» degan fikrni bildiradi.³ Bu fikr zamirida kesimning predikatga, eganing subyektga mos kelmasligini koʻrish mumkin. U oʻz fikrining tasdigʻini shaxsi nomaʼlum gaplar misolida koʻrsatib beradi.

Hozirgi zamon hind-ovropa tillarida barcha mustaqil leksik maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar mantiqiy jihatdan subyekt vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holda mantiqiy subyekt gapda soʻz tartibi, koʻmakchilar, fraza urgʻulari yoki aynan shu fikrni ifodalovchi yangi gaplar tuzish usullari yordamida namoyon boʻladi.⁴ B.V. Kolshanskiy mantiqiy subyekt haqida «... hukmdagi subyekt tushuncha mazmunida har xil boʻlishi mumkin. Tilda mantiqiy subyekt gapda aniq sintaktik boʻlak kabi turli soʻz turkumlari bilan ifodalanaveradi» deb yozadi.⁵

¹ Буслев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. — Москва, 1968. — С.8.

² Шахматов А.А. Синтаксис русского языка (2-е изд.). — Ленинград: Учпедгиз, 1941. — С. 25.

³ Пешковский А.А. Русский синтаксис в научном освещении. — М.: Учпедгиз, 1956. — С. 187.

⁴ Мигирин В.Н. Отношения между частями речи и членами предложения: «Науч. докл. высш. школы филол. науки», Москва, 1959. — №1. — С. 37.

⁵ Колшанский Г.В. Логика и структура языка. — М.: АН СССР, 1965. — С. 143.

Hukm tarkibida predikat asosan¹, subyektda ifodalangan tushunchani anglatadi. Predikat o'z mazmuniga ko'ra subyektni tavsiflaydi, ya'ni subyekt agens yoki obyekt vazifasida ekanligini, ma'lum holatda yoki unga ma'lum son, sifat xarakteristikasi yuklatilganligini anglatadi.

A.A. Potebnyaning fikricha, «... predikativ aloqa shaxsli fe'lining grammatik shaklidir».¹ Bu esa fe'l shakli bimalol predikasiya tushunchasini almashtira oladi, degan ma'noni anglatadi. Demak, predikativlik predikat fe'l, deb ta'kidlansa, mantiqiy kategoriya bilan grammatik kategoriya o'rtasidagi farq yo'qoladi. Bu borada A.A.Shaxmatov gapning grammatik va kommunikativ tarkibini farqlashga harakat qiladi, ya'ni «*Стол стоит в комнате*» gapida kesim vazifasida «*стоит*» fe'li kelgan bo'lsa, kommunikasiyaning tobe tarkibi sifatida, ya'ni predikat vazifasida «*стоит в комнате*» kelgan deydi. Boshqa turdagi gaplarda, masalan, «*Он высокого роста*», «*Он теперь профессором*» gaplarida fe'l kesim ishtirok etmagan. Bunday holni A.A.Shaxmatov «moslashmagan tobe tarkib» deb ataydi. Lekin, ushbu gaplarda mantiqiy predikatni ifodalovchi shunday til shakllari ham mavjud, desa ma'qul bo'lar edi. Boshqa bir o'rinda u o'z fikriga qarshi chiqqan holda «Kesimni o'rganishni tasdiqlaydigan tabiiy va yagona usuli fe'ldir deyish, meningcha xatodir» deb ta'kidlaydi.²

Qayd etilganlardan anglashiladiki, har qanday gapning predikat qismi turli so'z turkumlari yordamida ifodalanishi mumkin. Bosh bo'laklar masalasining hozirga qadar ko'pgina bahslarga sabab bo'lishi nazarimizda tilshunoslikda ega yoki kesimni aniqlash uchun aniq lisoniy usullardan foydalanmaslikka borib taqaladi.

¹ Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Часть 1-2. — М.: Учпедгиз, 1958. — С. 11.

² Шахматов А.А. Синтаксис русского языка (2-е изд.). — Ленинград: Учпедгиз, 1941. — С. 25.

Birinchi bobga xulosa

Ushbu bob bo'yicha xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, qiyosiy tipologiyaning o'rganish obyektlari va u haqdagi nazariy qarashlar keltirilib o'tilgan. Shuningdek qiyosiy tipologiya o'z ish doirasini tilning turli xil, yani morfologik, fonologik, fonetik, leksik va sintaktik sathlarida olib borishiga guvoh bo'ldik. Bundan tashqari har bir sathning ham o'zi o'rganuvchi obyektlari mavjud ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur ishning tadbqiq qilish obyekti ingliz va o'zbek tillari sintaksisi bo'ganligi sababli ishda sintaktik tipologiyaga ko'proq e'tibor qaratilgan. Jumladan, mazkur ishda ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasini talqin qilish uchun har ikkala tillardagi gaplarda shakl jihatdan kesim o'rnida kelgan elementlarni boshqa elementlar bilan bo'lgan sintaktik aloqalarini va ularning differensial-sintaktik belgilarini aniqlash, kesim o'rnida kelgan elementlarni sintaktik yarusda semantik belgilarini topish, ya'ni o'sha elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlab, ularning variantlarini inventarizasiya qilish hamda kesim o'rnida kelgan elementlarning har ikkala tilda izomorflik va allomorflik xususiyatlarini aniqlash ko'zda tutilgan. Albatta, bunday yondashuv tillarni qiyosiy o'rganishda yangicha bo'lib, bundan asosiy maqsad muayyan sintaktik tipologik kategoriyalar yaratishdir. Yuqoridagilardan tashqari sintaksisning asosiy o'rganish muammolaridan biri bo'lgan bosh bo'laklar muammosi ham ko'rib chiqilgan. Unga ko'ra tilshunoslikdagi subyekt va predikat tushunchalariga izoh, ular o'rtasidagi munosabatlar haqidagi olimlarning fikrlari bayon qilingan.

II BÖB

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KESIMNING

IFODALANISH USULLARI

O'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo'lak kesimdir. Kesim gapning markaziy bo'lagi bo'lganligidan gapning butun tavsifi-grammatik kategoriyalar: tasdiq-inkorlik, shaxs (personallik), zamon (teporallik), kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o'ynaydi. Qolgan bo'laklar kesimning kengaytiruvchilari yoki derivasiya usullari hisoblanadi. Bu jihatdan ega ham kesimning sub'ekt valentligini to'ldiruvchi bo'lak gap tuzilishini kengaytiruvchi hisoblanadi. Kesim predikativ shaklga ega bo'lganligi uchun, u gapda boshqa bo'laklarga nisbatan emas, balki bevosita belgilanadi. Gapning yangi axborot tashuvchi yoki temasi ega hisoblansa kesim esa rema yoki aktuallashtiruvchi bo'lak hisoblanadi. Demak, kesim ham uyushtiruvchi markaz, ham axborot markazidir.

Kesim bir butun sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligidan iborat. O'z navbatida shakl va mazmun ham muayyan elementlardan tashkil topadi.

2.1. Ingliz tilida kesim turlari va uning ifodalanishi usullari

Ingliz tilida ham kesim boshqa tillardagi kabi gapning bosh bo'laklaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida kesimga quyidagicha ta'rif berilgan: kesim gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lib, ega tomondan ifodalangan shaxs yoki narsaning harakati, holati va qobiliyatini ifodalaydi. Gapda kesim egaga bog'liq bo'lib keladi. Kesim odatda o'zlik fe'lidan iborat bo'lib, u zamonni, maylni, nisbatni, aspektlarni va ba'zida kishi va sonni ifodalab kelishi mumkin.

Ingliz tilida kesimlar sodda (Simple) va tarkibli (Compound) kesimlarga ajratiladi. Bular o'z navbatida morfologik xarakterga ko'ra sodda ot kesim (Simple Nominal Predicate), sodda fe'l kesim (Simple Verbal Predicate),

hamda tarkibli fe'l kesim (Compound Verbal Predicate), tarkibli ot kesim (Compound Nominal Predicate) kabi guruhlarga ajraladi.

Sodda fe'l kesim (The Simple Predicate) ikkiga bo'linadi: sodda fe'l kesim hamda frazeologik birlikdan iborat kesim.

Sodda fe'l kesim quyidagi morfologik ko'rsatkichlar vositasi yordamida ifodalanadi:

a) Zamon, nisbat, mayllar shaklida (*Works, reading, looking*);

b) Frazeologik birlik orqali (*to get rid of, to take care of*); hamda frazeologik birlik orqali yasalgan kesim ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. Fe'l artikl bilan ishlatiladigan shakli:

To have a smoke, to make a move, to have a swim. Bu shakl ko'pincha og'zaki nutqda ishlatiladi.

2. Mavhum otlar bilan ishlatiladi bunda artikl qo'llanilmaydi:

To make use, to take part in, to take care of.

Qo'shma kesim (The compound predicate) qo'shma - ot kesim (The compound nominal predicate) va qo'shma-fe'l (The compound verbal predicate) kesimga ajratiladi. Qo'shma ot kesim shaxs yoki predmetning holatini yoki darajasini bildirib, ega bilan bog'lanib keladi. Qo'shma ot kesim bog'lovchi fe'l (Link Verb) hamda predikativga (predicate) bo'linadi.

Bog'lovchi fe'l (Link Verb) shaxs, son, zamon, aspekt, mayl va ba'zida nisbat kategoriyalari bilan ifodalanib kelishi mumkin. Misol uchun *to be* fe'lini olsak, u asl bog'lovchi fe'llik vazifasini bajarib kelishi mumkin va so'z turkumlarining barchasi bilan ifodalanib, faqat morfologik shakllarni bajarib keladi. Masalan:

This is a picture of London.

Ko'pincha bog'lovchi fe'llar o'zini ma'nosini saqlab qolgan holda ifodalanadi. Masalan:

To appear, to get, to grow, to continue, to keep, to look.

2. Predikativ (Predicative) qo'shma⁶⁶-ot kesimning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. U har hil grammatik usullar yordamida ifodalanib kelishi mumkin:

a) Otning umumiy va qaratqich kelishigi bilan ham kelishi mumkin.

Masalan:

*She is a pretty **child**. The book is my **sister's***

v) Odatda predikativ ravish bilan ishlatiladi, lekin quyidagi hollarda u sifat bilan ifodalanib keladi. Masalan:

*She looks **bad**. She feels **bad**.*

s) Bundan tashqari, predikativ vazifasida kishilik, o'zlik, so'roq, gumon va nisbiy olmoshlar bilan kelishi mumkin. Masalan:

*It was **he**. Why? **What** is he?*

4. Predikativ vazifasida holatni ifodalovchi so'zlar bilan ishlatiladi. Masalan:

*He was **aware** all the time.*

*But I am **afraid**. I can't keep the man.*

5. Predikativ vazifasida tartib va sanoq sonlar bilan ham ishlatishi mumkin.

Masalan:

*I am only **18**.*

*Mr. Smith was **the first** to break the astonished silence.*

Qo'shma fe'l kesim (The sompound verbal predicate) ham ikkiga bo'lib o'rganiladi:

1. The compound verbal modal predicate.

2. The compound verbal aspect predicate.

1) Qo'shma modal fe'l kesim (The compound verbal modal predicate) quyidagilar bilan ifodalanadi:

a) Modal fe'l va infinitiv bilan:

can, may, must, should, would, ought, dare, need va h.k.

*You **can prove** everything and nothing.*

*I **have to work** for my living.*

b) Modallik xususiyatidagi fe'l orqali, infinitiv yoki gerundiy bilan keladi: *to hope, to expect, to try*;

Harris tried to open the door.

v) Modalli iboralar va infinitiv bilan ifodalanishi:

to be able to, to be bound, to be capable, to be going to.

Masalan:

I am going to leave Paris.

g) Fe'l va fe'lli iboralar gapda kesim vazifasida infinitivning egalik konstruksiyasi (The Subjective Infinitiv Construction) bilan kelishi mumkin. Bunda so'zlar va iboralar gapiruvchining munosabatini shaxs yoki predmetga ega orqali qaratilganligini ko'rishimiz mumkin:

A ship – "the Vestries" - is reported to be arriving at New York.

2. Qo'shma aspekt fe'l kesim (The compound verbal aspect predicate) ish-harakatning boshlanishi, takrorlanishi, davomiyligi va tugallanishini ifodalab, quydagi fe'llar bilan yasaladi: *to begin, to start, to commence, to fall, to set about, to go on, to keep on, to stop, to give up, to finish*. Bundan, tashqari infinitiv hamda gerundiy bilan ham kelishi mumkin. Masalan:

She had stopped asking him about the time.

I kept glancing at her through the rest of the play.

Qo'shma fe'llarning aralash turlari ham mavjud (The mixed types of predicate):

1. Qo'shma modalli ot kesim (The compound modal nominal predicate):

Don't think I means to be unkind.

2. Qo'shma aspektli ot kesim (The sompound aspect nominal predicate):

It was like coming ashore after a channel crossing. I began to feel rather hungry.

I was glad that the doctor had been Chinese, and not American. I continued to be glad for that.

3. Qo'shma modalli aspektli ot kesim (The sompound modal aspect predicate):

I had to begin living all over again. He ought to stop doing nothing and criticizing everybody.

2.2. O'zbek tilida kesim turlari va uning ifodalanish usullari

Ega haqida tasdiq yoki inkor hamda so'roqni bildiradigan gap bo'lagi kesim deyiladi. Kesim egaga tobe, o'ziga bog'lanib kelgan so'zlarga nisbatan hokimdir. Kesim turli so'z turkumlari bilan ifoda qilinadi. Tuslangan fe'llar ikki tarkibli gaplarning kesimi uchun tipik shakldir. O'zbek tilida kesimlar ot, sifat, son, olmosh, ravish bilan shuningdek, ravishdosh, harakat nomi bilan ham ifodalanadi. Turg'un bog'lovchilar ham kesim bo'lib keladi. O'zbek tilida kesim quyidagi vositalar orqali ifodalanadi; 1) mustaqil so'z shaklidagi bir yo bir necha o'zak – negiz bilan (*Karim, sen. ishga bor. Anor - meva*); 2) shaxs-son va zamon affiksi bilan shakllangan so'z yo so'zlar bilan (*o'rog'lik kigizga o'tirishdi.*); 3) ma'lum so'zga egalik, kelishik, yuklama affikslar yo ba'zi bog'lovchilarning qo'shilishidan. Bularning har birida ham kesimning o'ziga xos intonasiyasi bo'ladi.

Kesimlik affiksisiz kelgan so'z yoki so'zlar egadan keyin kelishi bilan kesimlik vazifasini bajaradi. Demak, bunday so'zlarning gapda kesim bo'lib kelishi so'z tartibiga ko'ra belgilanadi. Masalan: *Kitob chiroyli (chiroyli - kesim). Chiroyli kitob (chiroyli - aniqlovchi).*

Qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishiga qarab kesimlar ikki guruhga bo'linadi: Fe'l-kesim va ot-kesim. Fe'l kesim fe'llarning tuslangan formalari, ba'zan ravishdosh formasi gapda fe'l kesim bo'lib keladi. Masalan:

Do'stlar kinoga borishga yig'ildi.

Texnikadan umumli foydalanaylik!

Bu yil yozgi kanikulda butun kursimiz bilan Buxoroga bordik.

Bahor kelib, gullar ochildi.

Ot kesim fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan shuningdek, fe'lining harakat nomi shakli bilan ifodalansa kesim deb yuritiladi:

*Paxta davlatimiz **boyligidir.***

*El siylagan yerda **aziz.***

*Har kungi bazmixonlikdan bir kungi jonbozlik **yaxshi.***

Ot kesim deganda, (bu o'rinda ot termini keng ma'noda, umuman ism ma'nosida qo'llanadi) bu guruh kesimlarga, sifat, ot, olmosh, son, ravish kabi so'zlarning biri orqali ifodalangan kesimlar kiradi. Bular shakllanishlari, ma'no funksiyalari jihatdan ham fe'l kesimlardan farqlanadi. Ular o'zbek tilida o'zak – negiz tarzida bo'lishlari yoki biror affiks bilan shakllanishlari mumkin: yolg'iz o'zak-negiz bo'lsa, bir elementli; o'zak-negiz va kesimlik affiksi yoki *-dir* elementidan tashkil topsa, ikki elementli; o'zak-negiz va *-dir* elementi, kesimlik affiksidan iborat bo'lsa, uch elementli bo'ladi. Kesim o'zak – negizga ko'plik (-lar), kelishik (-dan) va kesimlik affikslari qo'shilishi bilan to'rt elementli ham bo'ladi (*Demak, sizlar yaxshilardansiz*). Bu elementlarning hammasi qo'shilsa, besh elementli kesim hosil bo'ladi (*Yaxshilardandirsiz*). Har bir element kesim tarkibida ma'lum vazifani bajaradi.

Ot kesim quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi

a) Son bilan ifodalanadi:

*Musobaqada g'olib chiqqanlar **beshovimiz.***

b) Olmosh bilan ifodalanadi:

*Yaxshi niyatli kishilarning ahdi-**shu***

*Ha, shu yil boy qizlar **sizlar.***

v) Ravish bilan ifodalanadi:

*Hali barg yozmay bezrayib turgan ikki tup sada tagidagi choyxona so'rilarida odam **ko'p.***

g) Harakat nomi bilan ifodalanishi:

*Yashamoq xalqqa va Vatanga foyda **keltirmoqdir.***

d) Ot kesim odatda bosh kelishik shaklida bo'ladi. Ba'zan chiqish, jo'nalish, o'rin kelishigi formasida kelgan so'z ham kesim bo'lib kelishi mumkin:

Bilim kuchda, kuch bilimda.

e) Turg'un bog'lanmagan kesim bo'lib kelishi ham mumkin:

Bu masalada biz o'zaro bir yoqadan bosh chiqarmog'imiz kerak.

O'qituvchi sinfda o'tirgan o'quvchilarga ko'z yugirtirib chiqdi.

Kesim so'z yoki so'zlar birikuvi bilan ifodalanadi. Bunday kesimli gaplar ikki xil konstruksiyada bo'ladi. 1. Bir tarkibli gap. 2. Ikki tarkibli gap.

Bir tarkibli gapda kesim yolg'iz ifodalanadi, egaga bog'lanmaydi chunki, ega ifodalanmaydi. Bunday gaplarda kesimdan anglashilgan bo'lishli yoki bo'lishsiz ish-harakat, holat yoki biror belgi maxsus bir predmetga-egaga bog'liq bo'lmaydi. Shaxsi no'malum, shaxsi umumlashgan gaplarda esa kesim ma'lum bir konkret shaxs bilan bog'lanmaydi.

Ikki tarkibli gapda kesim ma'lum ega to'g'risidagi hukmni ifodalaydi. Boshqacha aytganda bo'lishli yoki bo'lishsiz ekanligini uning holatini, sifatini, kim yoki nimaligini, miqdori, o'rni, yo'nalgan tomoni, mavjud yoki mavjud emasligi yoki u haqidagi so'roqni bildiradi. Demak, ikki tarkibli gaplarda kesim egani izohlab, unga tobe bo'lib, uning harakatiga mos shakllarda kelib, gapda bosh bo'laklarning biri tarzida ko'rinadi.

O'zbek tilida kesimlarning quyidagi ifoda vositalari ishtirokida yasaladi:

1. Mustaqil so'z shakldagi bir yo bir necha o'zak-negiz bilan:

Karim, sen ishga bor.

Anor-meva.

2. Shaxs-son zamon affiksi bilan shakllangan so'z yoki so'zlarning yordamida yasaladi:

O'rog'lik kigizga o'tirishdi.

3. Ma'lum so'zga egalik, kelishik yuklamalarning affikslari yoki ba'zi bog'lovchilarning qo'shilishidan (bunda kesimning o'ziga xos intonasiyasi bo'ladi) yasaladi:

Bilaman, poylagansan...

Havo ochiq, oftob tobida, ko'lankadan asar ham ko'rinmasdi

...ona rozi bo'lgach, suyunib ketdi.

Kesimlilik qo'shimchasiz kelgan so'z yoki so'zlar egadan keyin kelishi bilan kesimlilik vazifasini bajaradi. Demak, bunday so'zlarning gapda kesim bo'lib kelishi so'z tartibiga ko'ra belgilanadi. Masalan: *Kitob chiroyli (chiroyli – kesim)*

Chiroyli kitob (chiroyli - aniqlovchi).

Umuman olganda, o'zbek tilida kesim tuzilishini quyidagi model orqali ifodalash mumkin:



Ikkinchi bobga xulosa

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra xulosa qilib, ingliz tilida kesimlar sodda (Simple) va tarkibli (Compound) kesimlarga ajratiladi. Bular o'z navbatida morfologik xarakterga ko'ra sodda ot kesim (Simple Nominal Predicate), sodda fe'l kesim (Simple Verbal Predicate), hamda tarkibli fe'l kesim

(Compound Verbal Predicate), tarkibli ⁶ ot kesim (Compound Nominal Predicate) kabi guruhlarga ajraladi.

Sodda fe'l kesim quyidagi morfologik ko'rsatkichlar vositasi yordamida ifodalanadi:

a) Zamon, nisbat, mayllar shaklida (*Works, reading, looking*);

b) Frazologik birlik orqali (*to get rid of, to take care of*); hamda frazeologik birlik orqali yasalgan kesim ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. Fe'l artikl bilan ishlatiladigan shakli bu shakl ko'pincha og'zaki nutqda ishlatiladi.

2. Mavhum otlar bilan ishlatiladi bunda artikl qo'llanilmaydi:

3. Predikativ (Predicative) qo'shma-ot kesimning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. U har hil grammatik usullar yordamida ifodalanib kelishi mumkin:

a) Otning umumiy va qaratqich kelishigi bilan ham kelishi mumkin.

v) Odatda predikativ ravish bilan ishlatiladi, lekin quyidagi hollarda u sifat bilan ifodalanib keladi.

s) Bundan tashqari, predikativ vazifasida kishilik, o'zlik, so'roq, gumon va nisbiy olmoshlar bilan kelishi mumkin

4. Predikativ vazifasida holatni ifodalovchi so'zlar bilan ishlatiladi.

5. Predikativ vazifasida tartib va sanoq sonlar bilan ham ishlatishi mumkin.

Qo'shma fe'l kesim (The compound verbal predicate) ham ikkiga bo'lib o'rganiladi:

1. The compound verbal modal predicate.

2. The compound verbal aspect predicate.

1) Qo'shma modal fe'l kesim (The compound verbal modal predicate) quyidagilar bilan ifodalanadi:

a) Modal fe'l va infinitiv bilan;

b) Modallik xususiyatidagi fe'l orqali, infinitiv yoki gerundiy bilan keladi

v) Modalli iboralar va infinitiv bilan ifodalanishi:

g) Fe'l va fe'lli iboralar gapda⁶⁶ kesim vazifasida infinitivning egalik konstruksiyasi (The Subjective Infinitiv Construction) bilan kelishi mumkin. Bunda so'zlar va iboralar gapiruvchining munosabatini shaxs yoki predmetga ega orqali qaratilganligini ko'rishimiz mumkin:

2. Qo'shma aspekt fe'l kesim (The compound verbal aspect predicate) ish-harakatning boshlanishi, takrorlanishi, davomiyligi va tugallanishini ifodalaydi. Bundan, tashqari infinitiv hamda gerundiy bilan ham kelishi mumkin.

Qo'shma fe'llarning aralash turlari ham mavjud (The mixed types of predicate):

1. Qo'shma modalli ot kesim (The compound modal nominal predicate):
2. Qo'shma aspektli ot kesim (The sompound aspect nominal predicate):
3. Qo'shma modalli aspektli ot kesim (The sompound modal aspect predicate):

O'zbek tilida esa kesim tuzilishini quyidagi model orqali ifodalash mumkin:

1. Sodda kesim
2. Tarkibli
3. Qorishiq
4. Birikma
5. Fe'l kesim
6. Ot kesim
7. Fe'llardan iborat tarkibli kesim
8. Ot va fe'ldan iborat tarkibli kesim
9. Aniqlovchi birikmali affikssiz kesim
10. Aniqlovchi birikmali qaratqich va egalik affiksli kesim

III BOB

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KESIM O'RNIDA KELGAN ELEMENTLARNI PROSESSUAL SINTAKSEMALARGA AJRATIB TAHLIL QILISH

Ushbu bo'limdan kutilayotgan maqsad kesim o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik va semantik belgilarini aniqlash, ularning tipologiyasini hamda har ikkala tilda kesim o'rnida kelgan sintaktik elementlardagi izomorflik va allomorflik ko'rinishlarini topish, ularning ifoda variantlarini aniqlash, hamda u yoki bu sintaktik aloqalar yordamida qanday differensial sintaktik va semantik belgilar bilan birika olishini aniqlashdan iboratdir. Ma'lumki, gapda har qanday sintaktik o'rin sintaksemalarga ajratishda asos qilib olinishi mumkin. Lekin, mazkur ishda ingliz va o'zbek tilidagi gaplarda kesim o'rnida kelgan sintaktik birlik asos qilinib olinadi.

Umuman, gapdagi komponentlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish har bir elementni u yoki bu o'rinda sintaktik qatlamda semantik maydonini topishdir. Masalan, bir element har ikkala tillarda ham turlicha komponentli gaplarda turli o'rinlarda kelib, har xil semantik maydonga ega bo'lishi mumkin. Ingliz tilidagi *a pen* va o'zbek tilidagi *ruchka* so'zini olsak, quyidagi gaplarda yuqorida aytilgan fikrning guvohi bo'lishimiz mumkin :

1. *I buy a pen.*

1. *Men ruchka sotib olaman.*

2. *A pen writes.*

2. *Ruchka yozadi.*

3. *I write with a pen.*

3. *Men ruchka bilan yozaman.*

Agarda *pen*, *ruchka* so'zlarining leksik ma'nosidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu so'zlar predmetni ifoda etadi, ammo sintaktik qatlamda har xil semantik maydonga ega bo'ladi. Birinchi gapda *a pen*, *ruchka* so'zlari kategorial belgilardan substansiallikka ega bo'lib, nokategorial belgilardan esa obyektlik, ikkinchi gapda agenslik (harakat ijrochisi) belgisini oladi. Uchinchi gapda esa substansiallik belgisidan tashqari *with a pen*, *ruchka bilan* so'zlari instrumentallik belgisiga ega bo'ladi. Bu gaplarning sintaksem modellari quyidagichadir:

Ingliz tilida:

- (1) Sb Ag . Pr Ac . Sb Ob;
- (2) Sb Ag . Pr Ac;
- (3) Sb Ag . Pr Ac . Sb Ins;

O'zbek tilida:

- (1) Sb Ag . Sb Ob . Pr Ac;
- (2) Sb Ag . Pr Ac;
- (3) Sb Ag . Sb Ins . Pr Ac;

Ko'rinib turibdiki, *pen*, *ruchka* so'zlari sintaktik qatlamda har ikkala tillardagi gaplarda kategorial belgilardan substansialikka ega bo'lsa, nokategorial, differensial sintaktik-semantik belgilardan turli o'rinlarda turlicha, ya'ni obyektlik, agenslik, instrumentlik belgilariga egadir.

Ammo, bu ishimizda faqat kesim o'rnida kelgan sintaktik birliklar har ikkala tillardagi gaplar misolida tadqiq etiladi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda asosan uchta kategorial belgilar aniqlanadi. Bular prosessuallik, substansiallik va kvalifikativlikdir.¹ Ular asosida esa bir qancha nokategorial belgilar aniqlanadi. Bu kategorial belgilardan kesim o'rnida kelgan prosessual sintaksemalarni ingliz va o'zbek tillari misolida ko'rib chiqamiz.

Prosessuallik² atamasi *prosess*, ya'ni *jarayon* ma'nosini ifoda etib, u substansiallik va kvalifikativlik bilan qarama – qarshi qo'yiladi. "Prosess" atamasi fe'l bilan ifodalangan harakatga nisbatan aniq tushunchaga ega bo'lib, u fe'ldan yasalgan ot ifoda etgan ma'noni ham ifodalaydi.² Prosessuallik sintaksemalar differensial sintaktik-semantik belgilardan biri bo'lib, u bir qancha nokategorial belgilardan aktivlik (harakat) va stativlik(holat)ni ifodalashi mumkin. Ularni sintaktik qatlamda bir-biridan farqlashda qator qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Gapda NP2 o'rnida kelgan prosessuallik sintaksemalarning leksik bazasi turli semantikaga xos bo'lgan fe'llar hisoblanadi. "Fe'l odatda shunday so'z turkumiki, semantik jihatdan harakat yoki holatni ifodalasa, shakl jihatdan esa shaxs,

¹ Процессуаллик-ни ҳаракатни ёки ҳолатни ифodalovchi синтактик birlikdir; Субстанциаллик-шахсни, предметни от, олмош кабилар ёрдамида ифodalанишидир; Квалификативлик-предмет ёки шахснинг белгиси, сони, иш-ҳаракат бажарилиш тарзини ифodalayди. Ўзранг: Мухин А.М. Синтаксический анализ и проблемы уровней языка. – Ленинград: Наука. Ленинград. отделение, 1980. – 304 с.

² Мухин А.М. Функциональный анализ синтаксических элементов (на материале древнеанглийского языка). – Москва, Ленинград: Наука, 1964. – С. 72-73.

zamon, nisbat, tus va maylni ifodalaydi». ¹ L.S.Barxudarov va D.A.Shtelling harakatni ifodalaydigan fe'llarni holatni ifodalaydigan fe'llardan farqlash fe'llarning o'timlilikiga yoki o'timsizligiga bog'liq deb ko'rsatadilar. ² J.Miller stativ (holat) fe'llarni ingliz tili gaplarida quyidagi mezonlar asosida aniqlaydi: 1) stativ fe'llar sifatlarga o'xshab buyruq maylida ishlatilmaydi; 2) stativ fe'llar progressiv (davomiylik) shaklda qo'llanilmaydi; 3) stativ fe'llar ravishning ayrim turlariga o'xshab, ish-harakatni qay tarzda bajarilishini ifodalamaydi. ³

Ko'pgina fe'llar kontekst bilan bog'liq holda aktivlik yoki stativlik belgilarini ifodalashi mumkin, lekin bu ularning gapda boshqa elementlar bilan sintaktik aloqalar yordamida bog'lanishiga bog'liq. Shuning uchun ham M.Lich *remember* fe'li bilan ikkita misol keltirib, ulardan birida *remember* aktivlikni (ish-harakatni) ifoda etsa, boshqasida stativlik (holat) belgisini ifodalashini ko'rsatadi:

1) *Suddenly I remembered a letter.*

2) *I shall remember that until I die.* ⁴

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, prosessuallik tarkibidagi aktivlik va stativlik sintaksemalari o'zlarining distribusiyalari bilan farqlanadi. Ammo, mazkur ishda prosessual stativ sintaksemani prosessual aktiv sintaksemadan to'liq farqlash muammosi oldimizga maqsad qilib qo'yilgan emas. Bu muammo maxsus izlanishni talab qiladi. Biz faqat ingliz va o'zbek tillarida prosessual aktiv va stativ belgilar tipologiyasi bilan chegaralanamiz.

Faktik misollarimizdan ko'rinishicha, har ikkala tillarda ham NP2 o'rnida kelgan prosessuallik sintaksemalarga xos nokategorial belgilardan aktivlik, negativlik, modallilik, stativlik, direktivlik (yo'naltirilganlik) belgilari uchraydi va ularning tipologiyasini alohida tarzda ko'rib chiqish lozim.

¹ Меньянинов И.И. Члены предложения и части речи. — Москва, 1978. — С. 292.

² Бархударов Л.С., Штеллинг Д.А. Грамматика английского языка. — М.: Высш. школа, 1965. — С. 129.

³ Miller J.E. Stative verbs in Russian// Foundations of Language, 1970. -№4. V. 6. —P. 493-495.

⁴ Leech N. Meaning and the English verb. — London : Longmans, 1971. — P. 4-5

3. 1. Aktiv sintaksemalar tipologiyasi

Aktivlik belgisi (lotincha *activ*) «*harakat*» ma'nosini ifodalaydi. Bu sintaksema har ikkala tillarda NP2 o'rnida quyidagicha beriladi:

- 1) *I went out to meet her* (EHF, 102).
- 2) *I rent the attic in a two-storied house* (VG, 99).
- 3) *A bat flew into the room* (EHF, 73).
- 4) *I moulded it* (CST, 39).

Gaplardagi *went out*, *rent*, *flew*, *moulded* elementlari fe'llar bilan ifodilangan bo'lib, ular prosessuallik aktivlik ma'nosini ifoda etadi. Aktivlik belgisini aniqlash va isbotlash uchun bu sintaktik birliklar NP2 o'rnida kelib, yadro predikativ aloqa asosida agentivlik (harakat bajaruvchi) sintaksema bilan birikib keladi. Bu sintaksemalar gaplarda o'timli va o'timsiz fe'llar bilan ifodalanib, fe'lning aniq nisbatida beriladi va harakatni ifodalaydi. Bu harakat subyekt tomonidan bajariladi. NP1 (yadro predikativlik I) o'rnida kelgan elementlar, ya'ni *I* (1,2,4), *a bat* (3) so'zlari agentivlik sintaksemaning ifodalanishi hisoblanadi. Prosessuallik aktivlik sintaksema (Pr Ac) NP2 o'rnida kelganda o'timli, o'timsiz hamda terminativ (tugallangan), noterminativ (tugallanmaganlik) fe'llarning shaxsli shaklida ifodalanishi mumkin:

- 5) *She started for the door* (EHF, 102).
- 6) *The wickets gloomed in the sun* (TH,33).
- 7) *He recieved it* (CST,34).
- 8) *We walked along the railroad track* (EHF,151).

Bundan tashqari, fe'lning analitik shakli bilan ham ifodalanadi:

- 9) *We had planned to go to Pallanza* (EHF,99).
- 10) *They are waiting for me* (EHF,72).
- 11) *She would find her way* (CST,52).
- 12) *I shall speak to your mistress* (VG,24).
- 13) *All our boarders have been using it for no end of time* (VG,91).
- 14) *She was wearing a dark blue cape* (EHF,102).

15) *He gave her a look* (SMP,35).

16) *Dave Nelson was in command* (CFS,328).

Oxirgi ikkita gapda prosessuallik aktivlik sintaksemlari transformasiya - verbalizasiya (fe'lga aylantirish) yordamida aniqlanadi:

(15) *He gave her a look* → *He looked at her* (16) *Dave Nelson was in command* → *Dave Nelson commanded* (qiyoslang: *to give smb. a look* → *to look at smb; be in command of regiment* → *to command regiment*).

Yadro predikativ aloqa bazasida prosessual aktivlik sintaksema quyidagi sintaksemlar bilan birikishi mumkin:

1) agentivlik sintaksema bilan:

17) *You are flattering me, sir* (VG,105).

18) *He wiped his moustache* (CFS,73).

2) agentivlik negativlik sintaksema bilan:

19) *Nothing is ailing me* (CFS,175).

3) substansial elektiv (tanlash)-agentiv sintaksema bilan :

20) *Two of them were crying* (EHF,133).

Sodda yoyiq gaplarda prosessual aktivlik sintaksema subordinativ aloqa asosida quyidagi sintaksemlar bilan birikishi mumkin :

1) substansial obyekt sintaksemlar bilan :

21) *They will certainly tax it* (VG,92)

22) *I expect big things* (CST,52).

2) lokativ (o'rin) sintaksema bilan :

23) *I went out as usual to school* (CST,31).

24) *Piani sat at the table very sleepy* (EHF,136).

3) substansial obyekt agentivlik sintaksema bilan :

25) *I want you to remember* (CST,52).

26) *I will ask Valentini to come* (EHF,72).

4) temporallik (payt) sintaksema bilan :

27) *I am going away at midnight* (EHF,105).

28) *We'll know pretty soon* (EHF, 157).

5) obyekt aktivlik sintaksema bilan :

29) *I loved to take her hair down* (EHF, 82).

30) *She hated to spend money* (SMP, 23).

6) sosiativlik (birgalilik) sintaksema bilan :

31) *I had a drink with a captain* (EHF, 17).

7) obyektli elektiv sintaksema bilan:

32) *I have missed some of them* (VG, 14).

8) stativ sintaksema bilan:

33) *He was lying asleep* (EHF, 156).

9) komparativ sintaksema bilan:

34) *You're like me in that* (CST, 52).

35) *You are like a married man* (EHF, 117).

10) obyekt kvalitatiflikni (sifat) o'z zimmasiga olgan sintaksema bilan:

36) *The boy made the lights yellow* (EHF, 105).

11) obyekt stativlikni o'z zimmasiga olgan sintaksema bilan:

37) *They made me feel civilized* (EHF, 175).

12) harakatning bajarilish usuli sintaksemasi bilan (sintaksema sposoba):

38) *She looked lovely in the bad* (EHF, 135).

39) *The flakes were coming heavy* (EHF, 131).

O'zbek tilida ham gaplarda NP2 o'rnida kelgan elementlar o'timli, o'timsiz fe'llar yordamida ifodalanadi:

1) *Bo'ri polvon kalishini yechdi* (TMO, 12).

2) *Nasimning burni terladi* (TMO, 26).

3) *Bobir o'z onasini esladi* (PQYu, 113).

4) *Yap-yangi orol paydo bo'ladi-qoladi* (JAB, 46).

5) *Men endi ayolimiz sochidan tortqiladim* (TMD, 108).

Berilgan gaplarda *yechdi, terladi, esladi, bo'ladi-qoladi, tortqiladim* elementlaridagi aktivlikni aniqlashda gaplardagi NP1 o'rnida kelgan elementlar *Bo'ri polvon, burni, Bobir, orol, men* yadro predikativ aloqa yordamida birikib, ular agentlik (harakat bajaruvchi) sintaksema belgisini aks ettirgan. Fe'llarning shaxsli shakli bilan ifodalangan elementlar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1) fe'ning sof shaxsli shakli bilan:

6) ... usta Shamsi o'z ixtiyori bilan Toshkandni tanladi (ADK, 7).

2) fe'ning majhul nisbati yordamida :

7) Toboq-toboq palov suzildi (TMO, 8).

3) fe'ning buyruq shakli bilan:

8) Odam bo'lib dardingni menga aytgin-a! (TMO, 38)

9) Sen o'zing bir o'ylab ko'rgin (PQYu, 107).

4) fe'ling analitik shakli bilan:

10) Umarshayx Mirzo qattiq o'ylamoqda edi (PQYu, 24)

11) ... manovi ikki polvon davraga gaplashib chiqibdi ekan (TMO, 29)

5) fe'ning ravishdosh shakli + *yurmoq* ko'makchisi bilan:

12) Aytmaganimda institutda tinchgina ishlab yuruvdi (TMG, 64)

13) Xo'p ajoyibotlarni orzu qilib yuribdi (TMG, 60)

6) ravishdosh + *olmoq* ko'makchisi bilan:

14) Men yoshingizni bilib oldim (TMG, 7)

15) ... dalada manaman deb turgan yangilik esa kandidatlik diplomini o'zi chaqirib oladi (TMG, 26)

7) ravishdosh + *turmoq* ko'makchisi bilan :

16) Nozima undan ko'z uzmay qarab turdi (TMG, 38)

8) ravishdosh + *kelmoq* ko'makchisi bilan:

17) Rixsiyev qishloqqa ko'chib keldi (TMO, 129)

9) ravishdosh + *yubormoq* ko'makchisi bilan:

18) Qayoqdandir to'qay bulbuli sayrab yubordi (JAB, 46)

19) Har ikkovini-da ozod qilib yuboribdi (TMO, 22)

Umuman olganda, o'zbek tilida aktivlikni ifodalashda yuqorida qayd etilgan shakllardek, ravishdosh + o'tmoq, boshlamoq, ketmoq, yurmoq, turmoq, bo'lmoq, yotmoq, qolmoq ko'makchi fe'llari ham muhim rol o'ynaydi:

20) *Shunday katta davra torlik qilib qoldi. (TMO, 88)*

21) *Suvlari shimoliy muz okeaniga oqib votibdi. (JAB, 42)*

22) *Bobir kuyunib gapira boshladi. (POYu, 109)*

23) *Men choyimni ichib bo'ldim. (TMO, 109)*

O'zbek tilida ham yadro predikativ aloqa asosida NP2 o'rnida kelgan aktivlik sitaksema agentivlik sintaksema bilan birikadi:

24) *Xizmatkorlar qo'r bo'lib o'tirib, sabzi to'g'radi. (TMO, 8)*

Gaplarda ayniqsa, o'zbek tiliga xos bo'lgan agentivlik sintaksemasini ifodalovchi element eksplisit tarzda berilmay qolishi juda ko'p uchraydi:

25) *Ertalab to'qqizda birinchi dovonda uchrashamiz. (OFD, 4)*

26) *Bug'doyingizni ichkaridan topib olaman-da. (TMO, 334)*

27) *Hosilotda oldiga belbog'ini yoydi. (TMO, 95)*

Mazkur gaplarda agentivlik sintaksemasini tiklash transformasiyasi yordamida amalga oshirish mumkin: (25) *Ertalab to'qqizda birinchi dovonda uchrashamiz* → *Biz ertalab to'qqizda birinchi dovonda uchrashamiz*; (26)

Bug'doyingizni ichkaridan topib olaman-da → *Men bug'doyingizni ichkaridan topib olaman-da*; (27) *Hosilotning oldiga belbog'ini yoydi* → *U hosilotning oldiga belbog'ini yoydi*.

Bunga o'xshash holatlar ingliz tilida asosan, dialogik nutqning javob replikalarida egasi ifodalanmagan to'liqsiz gaplar deb ataladi.¹

Sodda yoyiq gaplarda aktivlik sintaksemasi subordinativ aloqa bazasida quyidagi sintaksemalar bilan birikishi mumkin:

1. Substansial obyekt sintaksema bilan:

28) *Bolalar bu sonni belgilab oldi (TMO, 9)*

¹ Усмонов У.У. Неполные предложения в английской диалогической речи. Дисс. канд. филол. наук. - Киев: КГУ, 1983. - С. 38-40.

29) *O'g'il nonni uzib oldi (TMO, 309)*

2. Lokativ sintaksema bilan:

30) *Uloqlar toshdan-toshga sakrab chopdi (TMO, 19)*

31) *O'tgan yili u ko'chki tagida qolib o'ldi (NNYu, 6)*

3. Stativlik sintaksema bilan:

32) *U o'z uyhasidan tong havosidan mast bo'lib sayradi (TMO, 337)*

4. Komitativ sintaksema bilan:

33) *Bo'ri polvon endi orzu bilan ovundi (TMO, 74)*

5. Lokativ ablativ (chiqish kelishigi) sintaksemasi bilan:

34) *Bo'ri polvon damini olish uchun davradan chiqdi (TMO, 55)*

6. Lokativ allativ (jo'nalish kelishigi) sintaksema bilan:

35) *Polvonlar o'zlarini orqaga tashladi (TMO, 81)*

7. Harakatning bajarilish tarzi yoki usuli sintaksemasi bilan:

36) *Xizmatchilar cho'g'ni tepkilab o'chirdi (TMO, 92)*

8. Sosiativ (birgalilik) sintaksema bilan:

37) *Polvonlar qo'l berib ko'rishdi (TMO, 81)*

9. Final (maqsad) sintaksema bilan :

38) *U qo'ldan chiqargan tahrirga yon bosish uchun chog'landi (ADK, 9)*

Keltirilgan sintaksemalarni aniqlashda o'ziga xos eksprement uslubidan foydalanib, ularni quyidagicha isbotlash mumkin. Har ikkala tillardagi substansial obyekt sintaksemasini ajratishda transformasiya passivizasiyaga tushadi. Gaplardagi aktivlik sintaksemalar o'timli fe'llar bilan ifodalangan:

They will certainly tax it → It will be certainly taxed by them;

O'g'il nonni uzib oldi → Non o'g'il tomonidan uzib olindi.

Ingliz tilida substansial obyekt sintaksema aktivlik sintaksemaga nisbatan gap strukturasida postpozisiya holatida kelsa, o'zbek tilida prepozisiya holatida uchraydi.

Lokativ sintaksema turlaridan ablativ⁶ ham, allativ ham har ikkala tillarda almashtirish transformasiyasiga tushadi va lokativ (ablativ, allativ sintaksemalari: *to school*, *at the table*, *davradan*, *o'rqaga*) kabi elementlarni *here*, *there*, *shu yerda*, *shu yerga*, *shu yerdan* elementlari bilan almashtirish mumkin:

I went to school → *I went there* ;

Piani sat at the table ... → *Piani sat here (there)* ;

Bo'ri polvon ... darvozadan chiqdi → *Bo'ri polvon ... u yerdan chiqdi*;

...U ko'chki tagida qolib o'ldi → *U shu yerda qolib o'ldi*;

Sosiativlik sintaksemasini aniqlashda qo'shimcha qilish transformasiyasidan foydalanish mumkin: *I had a drink with a captain* → *I had a drink along with a captain*; yoki *I had a drink with a captain* → *We had a drink with together*; *Polvonlar qo'l berib ko'rishdi* → *Polvonlar bir-biri bilan qo'l berib ko'rishdi* yoki *Polvonlar qo'l berib ko'rishdi* → *Polvonlar qo'llari bilan ko'rishdi*.

Ingliz tilining o'zbek tilidan farqi shundaki, ingliz tilida obyektli infinitiv, subyektli infinitiv qurilmalarning majudligi tufayli ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan aktivlik sintaksemasi obyekt agentivlik, kvalitatiflik, stativlik sintaksemalari bilan subordinativ aloqada bo'lishi mumkin, ammo o'zbek tilida bunday hollarni uchratish qiyin.

3. 2. Aktiv negativ sintaksemalar tipologiyasi

Ingliz tilida gaplarda NP2 (yadro predikativlik II) komponenti o'rnida kelgan aktiv sintaksemani ifodalovchi asosiy element fe'l yordamida beriladi va ular negativlikni turlicha ifodalashi mumkin:

1. *You don't go away* (EHF, 77)
2. *She didn't went to heat his feelings* (SMP, 37)
3. *You will not make a mistake* (EHF, 104)
4. *I am not crying* (EHF, 78)
5. *She had not given up all hope* (CST, 38)
6. *You never know your own mind* (BUY, 95)

7. *He never referied to it (CST)*
8. *We'll never get any down here (EHF, 116)*
9. *You haven't been drinking it yourself (EHF, 100)*
10. *I have never seen a boarder ... (BUY, 91)*
11. *She had disliked me for a long time (EHF, 101).*

Aktiv negativ sintaksema ingliz tilida juda ko'p zamon shakllari bilan, ya'ni yordamchi fe'l + *not* inkor yuklamasi bilan ifodalanib qolmay, balki ular *never* inkorni ifodalovchi ravish gaplarning yadro predikativlik I va yadro predikativlik II o'rtasida kelishi bilan, hamda fe'llar oldidan inkorni ifodalovchi prefikslar yordamida ham beriladi. Ular asosan yadro predikativ aloqa bazasida substansial agentiv sintaksemasi bilan birikadi:

- 12) *I don't want to say ... (SMP, 56).* $\frac{NP1}{SbAg} \cdot \frac{NP2}{PrAcNg} \cdot \frac{ND}{PrObj}$; K.M.

Deyarli barcha gaplar NP1 va NP2 komponentlari o'rnida kelgan elementlar bir xil komponent va sintaksema modellariga mos keladi. Ammo, subordinativ aloqa orqali aktiv negativ sintaksemalar quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanadi:

1) substansial obyekt sintaksema bilan:

- 13) *I didn't believe it (EHF, 55)*
- 14) *I didn't blame them (EHF, 112)*
- 15) *He wasn't thinking of her (SMP, 88).*

2) substansial obyekt agentiv sintaksema bilan:

- 16) *You have never heard me sing (EHF, 87).*
- 17) *I don't ask you to forgive me (SMP, 126).*

3) prosessual aktiv obyekt sintaksema bilan:

- 18) *I didn't want to leave you (EHF, 156).*
- 19) *I don't want to loose hope (SMP, 126).*

4) substansional lokativ sintaksema bilan:

- 20) *I didn't room around the town (EHF, 84).*
- 21) *We'll never get any down here (EHF, 116).*

5) harakatning bajarilish tarzi yoki usuli (sintaksema sposoba) bilan:

22) *I didn't think so (EHF, 109).*

23) *The rain was not falling so heavily now (EHF, 141).*

O'zbek tilida ham gapning NP2 – predikativlik II o'rnida kelgan element harakatni ifodalovchi fe'l bilan beriladi va ularda negativlik turlicha usullar bilan yasaladi:

- 1) *Biz polvonlik maktabida o'qimadik. (TMO, 43)*
- 2) *Azaldan Ma'rufboy uvol-u savob dahmazasini xushlamaydi. (ADK, 4)*
- 3) *Hali bugungi gazetani ko'rganim yo'q (ShOZ, 25)*
- 4) *Bizlarga hyech xat yozmaganlar (ShOZ, 83)*
- 5) *Yigit gapirganda ovozi uncha kuchli tuyulmagan edi. (PQE, 6).*
- 6) *To'g'ri, u Mavludani hol- joniga qo'ymay yurdi (TMG, 26)*
- 7) *U Omonturdiyevni bir ko'rishdayoq yoqtirmay qoldi (TMG, 17).*
- 8) *Shu-shu, nohiya kattalari davralarga Bo'ri polvonsiz bormaydigan bo'ldi (TMO, 35)*
- 9) *Ammo Maksim polvon qo'yib yubormadi (TMO, 77)*

Misollardan ko'rinib turibdiki, negativlik belgisi o'zbek tilida ham turlicha usullar bilan ifodalangan, ya'ni fe'l o'zagiga –*ma* bo'lishsizlik shaklini qo'shish bilan, *fe'l+ yo'q* shakli bilan, fe'lning o'zagiga –*ma* + *ko'makchi fe'llar* (*bo'lmoq, yurmoq, qolmoq*) kabilarning birikib kelishi bilan ifodalanadi.

Aktiv negativ sintaksema yadro predikativ aloqa asosida faqat ingliz tilidagidek, substansial agentivlik sintaksema bilan bog'lanadi. Subordinativ aloqa bazasida aktiv negativ sintaksema quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanishi mumkin:

- 1) substansial lokativ sintaksema bilan:

Bo'ri polvon hovlisi yuzida oyoq bosar yer qolmadi (TMO, 64)

- 2) substansial obyekt sintaksema bilan:

U shuncha yil direktor bo'lgan maktabdan bunaqasini uchratgani yo'q (ShOZ, 21)

- 3) substansial lokativ possessivlik (egalik) sintaksema bilan:

Sho'rchiliklar-da xo'jasoatliklardan qolishmadi (TMO, 53)

- 4) substansial sosiativ (birgalilik) sintaksema bilan:

Sen Bo'ri polvon bilan o'rlashma (TMO, 45)

- 5) substansial temporallik (payt) sintaksema bilan:

Men endi Nasim bilan bir umr gap qo'shmayman (TMO, 35)

Ingliz tilida aktiv negativ sintaksemalarning ifodalanishi harakatni ifodalovchi fe'ldan oldin *do, shall, will, to be* yordamchi fe'li, *to have* yordamchi fe'liga inkor *not* ning qo'shilishi bilan, hamda harakat fe'lining bo'lishli shaklidan oldin *never* payt ravishining qo'shilishi bilan ifodalansa, o'zbek tilida – *ma* affiksi asosiy fe'lining o'zagiga qo'shilishi bilan, asosiy fe'lga *emas* to'liqsiz fe'lini qo'shib kelishi bilan, yetakchi fe'lga – *ma* affiksi qo'shib, ko'makchi fe'lining bo'lishli shakli bilan, yetakchi fe'lga va ko'makchi fe'lga – *ma* afiksi qo'shilishi bilan ham aktiv negativ sintaksema ifodalanadi. Lekin, bunday birikuvlarda A.Hojiyevning ta'kidlashicha «... bo'lishsizlik ko'rsatkichining qaysi fe'lga qo'shilish yoki qo'shilmasligi ma'no talabi bilan bo'ladi».¹

O'zbek tilida –*ma* affiksi yetakchi fe'lga qo'shilsa, harakat inkor etiladi. Lekin, ko'makchi fe'lga xos bo'lgan ma'no inkor etilmaydi. Agar bo'lishsizlik ko'rsatkichi ko'makchi fe'lga qo'shilsa, ko'makchi fe'l bildirgan ma'nodagi harakatning inkori tushuniladi. Inkori belgisi yetakchi va ko'makchi fe'lga qo'shilganda, tasdiq (bo'lishlilik) ma'nosi ifodalanadi. Bunda tasdiq ma'nosi alohida ta'kidlanadi va u qat'iy tusda bo'ladi. *Emas* to'liqsiz fe'li esa aslida to'liqsiz fe'lining inkori shakli bo'lib, u juda keng qo'llaniladi, ya'ni u nafaqat harakatni ifodalovchi fe'llarga, balki narsa-predmet, belgi, holatning inkorini ifodalash uchun ham qo'llaniladi. *Yo'q* yordamchisi orqali ifodalangan aktiv negativ sintaksema asosan, o'tgan zamon va hozirgi zamon fe'llarining –*gan, -yot*

¹ Ходиев А. Фелл, –Тошкент: Фан, 1973. 104 б.

+ *gan* affikslari yordamida yasalgan paytlardagina inkor shaklni hosil qilish uchun qo'llaniladi.

3. 3. Aktiv direktiv (yo'naltirilgan) sintaksema tipologiyasi

Prosessual aktiv deriktiv sintaksema ingliz tilida *to be* fe'lining shaxsli shakli va fe'ning o'tgan zamon sifatdash shakli yordamida majhul qurilmalar orqali ifodalanadi. Aktiv deriktiv sintaksema gaplarda NP2 o'rnida kelganda, asosan o'timli fe'llar yordamida berilib, obyektga nisbatan yo'naltirilgan bo'ladi. Mazkur sintaksemani aniqlashda an'anaviy grammatikadagi «subyekt» va «obyekt» tushunchalariga aniqlik kiritishga to'g'ri keladi. Chunki, an'anaviy grammatikalarda ular mexanik tarzda aralashtirilib, ularning morfologik muhiti ham bir-biri bilan chalkashtirib yuborilgan.¹ Rus tili akademik grammatikasida yozilishicha, subyekt asosan bosh kelishikda kelib, qolganlari bilan qarama-qarshi qo'yiladi, ya'ni obyekt, hol va aniqlovchilar bosh kelishikdan boshqa kelishiklar yordamida beriladi, deb ta'kidlanadi.² Lekin albatta, gapda obyektning yoki boshqacha qilib aytganda, o'timli fe'ldan anglashilayotgan harakat o'tadigan predmetni ifodalovchi obyektli sintaksemaning bo'lishi shartligini ta'kidlash lozim.³

Bu yerda shuni qayd etish joizki, "harakat subyekti" zamirida agentiv sintaksema tushunilmoqda. Aktiv deriktiv sintaksema fe'ning majhul nisbat shakli yordamida ifodalanib, ularni transformasiya yordamida aniqlik nisbatiga aylantirish mumkin:⁴

1. *The public is often easily pleased (BUY, 90).*
2. *He had been brought up by an uncle (EHF, 90).*
3. *In fact everything possible for your comfort has been done (SMP, 195).*

¹ Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л.: Наука, 1972. – С. 39-76.

² Грамматика русского языка. Том I. М.: Изд-во АН СССР, 1952. – С. 48-50.

³ <http://syntagma.li.ru/nau/article46.htm>.

⁴ Петушина И.А. Обстоятельства в английских стативных и пассивных предложениях. // Сб. Лингвистические исследования. – Москва, 1980. – С. 152.

4. *He has been sent to us by Heaven* (SMP, 120).
5. *... arrangments will be made at the cities* (SMP, 135).

Yuqorida berilgan misollarni tahlil qilishdan oldin shuni qayd etish lozimki, ingliz tilida mazkur holatdagi o'tgan zamon sifatdosh shakli sifatlashishi mumkin. Katta inglizcha-ruscha lug'atda ko'rsatilishicha, *distressed, drunk, valued* co'zlari *distressfull, drunken, valuable* kabilar qatori sifat deb belgilangan.¹

Bunday hollarda o'tgan zamon sifatdosh shakli transformasiyasi aktivlikka yoki aniq nisbatga tushmaydi:² *He is gone* yoki *She was come to say good-bye* (SMP, 198) *To say good-bye she came*. Umuman olganda, ingliz tilida majhul nisbatdagi gaplarda aktiv deriktiv sintaksema belgisini olgan sintaktik birliklar transformasiya depassivizasiyaga tushadi:

- 1) *The public is often easily pleased* → *We often pleased the public easily;*
- 2) *He had been brought up by an uncle* → *The uncle had brought up him;*
- 3) *In fact, everything possible for your comfort has been done* → *In fact, we have done everything possible for your comfort;*
- 4) *He has been sent to us by Heaven* → *Heaven has sent him to us;*
- 5) *... arrangments will be made at the cities* → *We shall make arrangments at the cities.*

O'zbek tilida majhul (passiv) nisbat asosan *-(i)l*, ayrim fe'llarda *-(i)n* affiksi yordamida yasaladi. Bu nisbat ob'yektli fe'llardan yasalganda asosiy e'tibor bajaruvchi (agens)ga emas, balki ob'yekt bilan harakatga qaratilgan bo'ladi. Aslida grammatik ob'yektni bildirgan so'z ushbu nisbatda ega vazifasini bajaradi. Ob'yektsiz fe'llar yordamida majhullik ifodalanganda shaxssizlik xususiyati yuzaga keladi:

1. *Ov qilish man etilgan.* (JAB, 44)

¹ Большой англо-русский словарь. /Под руков. Гальперина И.Р. Москва: Советская энциклопедия, 1972. I-II т. – С. 394, 417, 422.

² Петунина И.А. Английский субъектный результат (статив) и интранзитивный перфект. // Сб. Структура и значения предложений. –Москва: Акад.Наук СССР, ин-т языкознания, 1982. –С.177.

2. *Tokchalardan xoli devorga qizil oyoq gilam osilgan.* (ShOZ, 80)
3. *U zamonga moslab isloh qilingan.* (ShOZ, 80)
4. *Davra uzra simchiroqlar osildi.* (TKO, 10)
5. *Avaz odatdagidan xam kelishganroq ko'rindi.* (PQE, 140)

Gap tarkibida harakat bajaruvchisini (agensni) ko'rsatuvchi sintaktik element ishtirok etganda, majhul nisbat *tomon* yoki *taraf* so'zi bilan yasaladi. Masalan:

Direksiya tomonidan chiqarilgan buyruq → *Direksiya buyruqni chiqardi.*

Yuqorida keltirilgan misollarda (1-5) majhul nisbat ob'yektli fe'llardan yasalishidan qat'iy nazar, harakat bajaruvchisi (agens) borligi sezilib turibdi. Lekin, bu juda kuchsiz darajadaligi ko'zga tashlanadi.

Ingliz tilida kesim o'rnida kelgan aktiv yo'naltirilgan sintaksema har doim qat'iy ravishda *to be* + *participle II* shaklida keladi. An'anaviy grammatikada kesimi aniq nisbatda kelgan gapdagi ega majhul nisbatda to'ldiruvchiga aylansa, aniq nisbatdagi to'ldiruvchi majhul nisbatda egaga aylanishi ta'kidlanadi. O'zbek tilida ham shu hodisa qayd etiladi. Ammo, bizning ishimizda gaplardagi elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilinganda, har ikkala nisbatda ham differensial sintaktik va semantik belgilar saqlanadi. Masalan:

I write a letter → *A letter is written by me.*

SbAg . PrAc . Sb Ob → SbOb . PrAcDr . SbAg;

Men xat yozaman → *Xat men tomondan yoziladi.*

SbAg . Sb Ob . PrAc → SbOb . SbAg . PrAcDr;

Yadro predikativ aloqa bazasida har ikkala tillarda ham aktiv yo'naltirilgan (deriktiv) sintaksema substansial ob'yekt sintaksema bilan bog'lanadi. Subordinativ aloqa bazasida ingliz tilida aktiv deriktiv sintaksema quyidagi differensial sintaktik-semantik belgilar bilan bog'lanishi mumkin:

1. substansial komitativ sintaksema bilan:

A man was charged with theft (BUG, 94).

2. harakatning qay tarzda bajarilishi bilan:

The furniture was stiffly arranged (SMP,222).

3. komparativ (o'xshatish, qiyoslash) sintaksema bilan:

I was brought up like that (SMP,129).

4. Ob'yekt aktiv sintaksema bilan:

Kitty was prepared to flirt with them (SMP,27).

5. lokativ sintaksema bilan:

She was brought here (SMP, 137).

6. lokativ allativ sintaksema bilan:

One day he was sent to the mill (BUG, 46).

O'zbek tilida ham aktiv deriktiv sintaksema subordinativ aloqa asosida quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanadi:

1. lokativ allativ sintaksema bilan: *U Kaspiyga quyiladi (JAB,42).*

2. kvalitativ sintaksema bilan: *Bu narsalar hozir juda xushqomat ko'rinadi (PQK,112).*

Aktiv deriktiv sintaksema ingliz tilida *be + Ven, had been + Ven, has been + Ven, will be – Ven* kabilar yordamida ifodalansa, o'zbek tilida *-(i)l, -i(n)* affikslari asosida yasaladi.

3. 4. Aktiv modal va aktiv modal negativ sintaksemalar tipologiyasi

Ingliz tilida aktiv modal sintaksemalar xususida to'xtalsak, avvalambor quyidagi misollarga e'tiborimizni qaratishga to'g'ri keladi:

1. *You must give me time to think. (SMP,34).*

2. *He must have suggested it only to frighten her (SMP,128).*

3. *I have to go in the town (EHF,124).*

4. *I had to turn it into shillngs a week (CST,55).*

5. *They ought to get complete articulation (EHF,117).*

6. *I ll have to teach you sciences (BUY,73).*

7. *She should learn (EHF,72).*

8. *I was to return to the front (EHF,102).*

9. *They were to eat in the night (EHF, 81).*
10. *You can go anywhere (EHF, 172).*
11. *We could walk on the roads again (EHF, 216).*
12. *We shall be able to talk the matter over (BUG, 96).*
13. *It might go to your beard (EHF, 90).*

Keltirilgan misollarda yadro predikativlik II o'rnida kelgan elementlar *must give, must have suggested, have to go, had to turn, ought to get, shall have to teach, should learn, was to return, were to eat, can go, could walk, shall be able to talk, might go* kabilar modallik va aktivlikni (harakatni) ifodalab kelgan aktiv modal sintaksema hisoblanadi. Ular yadro predikativ aloqa bazasida substansial agentiv sintaksema bilan birikib keladi. Subordinativ aloqa bazasida aktiv modal sintaksema quyidagi sintaksemalar bilan birikishi mumkin:

1. lokativ allativ sintaksema bilan:

My father might have to go to the Mission (CST, 48).

2. obyekt sintaksema bilan:

You must take care of him (SMP, 120).

We shall be able to repeat the deal (BUG, 94).

3. obyekt aktiv sintaksema bilan:

We can afford to choose our lodgers (BUG, 59).

4. lokativ sintaksema bilan:

You can find round here (CST, 52).

5. obyekt negativ sintaksema bilan:

She could do nothing now (SMP, 143).

6. obyekt agentiv sintaksema bilan:

I could see the troops moving (EHF, 138).

7. temporal sintaksema bilan:

I could come for an hour (EHF, 182).

8. lokativ indefinit (noaniq) sintaksema bilan:

You can go anywhere (EHF, 172).

9. holat yuklatilgan ob'yekt sintaksema bilan:

They might call me drawned (EHF, 168).

O'zbek tilida ham modal fe'llar alohida tan olinmagan bo'lsa-da, aktiv modal sintaksema quyidagicha beriladi:

1. ... *po'lat izlar o'sha qatlamning eng yuqori chizig'i bo'ylab o'tishi kerak* (PQE, 341).
2. *Boshqalar ham o'z shaxsiy baxti uchun kurashishi kerak* (PQE, 341).
3. *Sen bu pulni to'lashga majbursan* (SAD, 172).
4. *Hozir qarzni to'lash zarur* (SAD, 57).
5. *Rahim yog'chiga qarzini to'lashi lozim edi* (SAD, 181).
6. *Aniq bir fikrga kelganimdan keyin bug'doy berishim mumkin* (SAD, 54).
7. *To'yda ziyofat bo'lishi mumkin* (SAD, 126).
8. *Faqat farzand onaga o'zini qurbon qilishi mumkin* (ShTR, 73).
9. *Savob olish uchun shahar ko'rish shartmi?* (ADK, 13).
10. ... *bu toqqa o'sha yerda tug'ilib o'sgan odamlargina chiqa olardi* (SAD, 13).
11. *Endi jadidlar bir oz ish qila oladilar* (SAD, 234).

Keltirilgan misollarda *o'tishi kerak, to'lashga majbursan, to'lash zarur, to'lashi lozim edi, berishim mumkin, bo'lishi mumkin, qilishi mumkin, ko'rish shartmi, chiqa olardi, qila oladilar* kabilar gapda aktiv modal sintaksemalarni ifodalab kelgan. Ingliz tilida gaplardagi *modal fe'l+infinitiv* yordamida aktiv modal sintaksema ifodalansa, o'zbek tilida esa oldin harakat nomi (*infinitiv*) + *kerak, lozim, shart, mumkin* kabi modal so'zlar bilan ifodalanadi. Bu ikkala til materiallari bir-biriga o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Ingliz tilida aktiv modal sintaksema faqat *modal fe'l + infinitiv* orqali ifodalanadi, ammo yaxlit modal fe'llar alohida sintaktik vazifani bajarmasligi bilan o'zbek tilidan farqlanadi. O'zbek tilida *kerak, lozim, shart, mumkin* kabi modal so'zlar gapda alohida sintaktik birlik hamda alohida differensial sintaktik belgi bo'lib kela oladi:

12. *Eng ozi ming tanga kerak* (SAD, 173).

13. U bizning millatga kerak (ShTR,87).

O'zbek tilida ham aktiv modal sintaksema yadro predikativ aloqa asosida substansial agentiv sintaksema bilan bog'lanadi va ular subordinativ sintaktik aloqa bazasida quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanishi ham mumkin:

1. substansial obyekt sintaksema bilan:

Faqat qo'yib yubor deguncha qiladigan ishni qilish kerak (TKO,59).

2. lokativ sintaksema bilan:

U ham pastda qolgan bo'lsa kerak (SAD,20).

3. final (maqsad) sintaksema bilan:

Sen bizga eng rostgo'y, eng vijdonli odam bo'lganing uchun keraksan (PQE,336).

4. substansial komparativ sintaksema bilan:

... biroq inson bo'lmoq uchun tog'dek bardosh kerak (ShTR, 16).

5. obyekt posessiv (egallik) sintaksema bilan:

Bu to'g'rida yolg'iz sening roziliging kerak (SAD,137)

Misollar tahlilidan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida aktiv modal sintaksemaning ifodalanishi va uning variantlari quyidagicha beriladi:

1. *must + infinitive* yordamida : *She must really love you to distraction* (SMP,148).

2. *Are/(am)/ is to + infinitive* yordamida : *The hospital and the sector are to be at Pordenone* (EHF,137).

3. *Must+ have + Ven* yordamida: *She must have seen them going out* (EHF,100).

4. *Can+ infinitive* yordamida: *You can give it to me tomorrow* (SMP,197).

5. *Could+ infinitive* yordamida: *We could eat something* (EHF,143).

6. *Be able to+ infinitive* yordamida : *We shall be able to talk the matter over* (BUG,96).

7. *Might + infinitive* yordamida: *We might say good bye* (EHF,111).

8. *might + infinitive + Ven yordamida: She might have lost her life* (SMP,201).

9. *Might have to + infinitive yordamida: My father might have to go to prison* (CST,48).

10. *Ought to+ infinitive yordamida: They ought to feed them better* (EHF,130).

O'zbek tilida esa aktiv modal sintaksemaning ifodalanish variantlari quyidagicha beriladi:

1. Harakat nomi (infinitiv) + *kerak*: *Ana yigit qanaqa bo'lishi kerak* (NNYu,13)

2. O'tgan zamon sifatdoshi *bo'l+sa+ kerak*: *U pastda qolgan bo'lsa kerak* (SAD,20)

3. Fe'ning buyruq shakli+*sin+edi*: *Mana shunday odamlar biror kosa qatiq yoki obiyovg'onni bersin edi* (SAD, 112).

4. Infinitiv+ shaxs qo'shimchasi+ *mumkin*: *Aniq bir fikrga kelganimdan keyin bug'doy berishim mumkin*(SAD, 54).

5. Infinitiv+shaxs qo'shimchasi+*lozim*: *Odamlarning kiyimlarini loyga belaganliklari uchun ham haq to'lashlari lozim* (ShTR, 72)

Bundan tashqari, o'zbek tilida sof modal sintaksema *kerak, lozim, shart, mumkin* kabi modal so'zlar bilan ifodalanadi. Ingliz tili bundan mustasno.

Ingliz tilida aktiv modal negativ sintaksema yadro predikativlik II (NP2) o'rnida *can, must, may* modal fe'llari va ularga xos muqobillarning inkor shakli va fe'ning infinitiv shakli orqali ifodalanadi:

1. *I can't believe it* (BUG,14).

2. *She can't speak a word of English* (SMP,150).

3. *My mother couldn't rest* (CST,47).

4. *I had not been able to get the tobacco* (EHF, 175)

5. *I won't be able to answer your question* (BUG, 35)

6. *We must not let herself think* (SMP, 222)

7. *I was not to expect success* (CST,56)
8. *You don't have to brag* (EHF,75)
9. *I shouldn't get out without paying* (EHF,110).
10. *You may never see him here again* (BUG,55).

O'zbek tilida esa *infinitiv q kerak (lozim, shart, mumkin) q emas* yordamida ifodalanish mumkin:

1. *Bu yerda qolish mumkin emas* (GYuA,119)
2. *U yoqqa borish shart emas* (EXA, 173)
3. *Men u yerga bora olmayman* (GYuA, 313)
4. *Eshikni yopish shart emas* (EXA, 171)

Ma'lum bo'lishicha, aktiv modal negativ sintaksemaning ifodalanish variantlari juda ko'p, o'zbek tilida esa modal so'zlardan keyin *emoq* to'liqsiz fe'lining inkor shakli yordamida ifodalanadi xolos. Har ikkala tillarda ham aktiv modal negativ sintaksema yadro predikativ aloqa bazasida substansional agentiv sintaksema bilan biriksa, subordinativ aloqa bazasida esa xuddi aktiv modal sintaksema kabi ingliz tilida obyekt, obyekt aktiv, obyekt negativ, obyekt agentiv, holat yuklatilgan obyekt, lokativ, allativ, lokativ noaniq, temporal sintaksemalar birikib kelsa, o'zbek tilida esa obyekt, obyekt posessiv, lokativ, komparativ sintaksemalar bilan bog'lanadi.

3. 5. Stativ sintaksemalar tipologiyasi

Ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan stativ sintaksemaning ifodalanishi shunday leksik-semantik guruh fe'llari bilan beriladiki, ular gapdagi subyektning holatini ifodalaydi.¹

1. *Beloxi was fainted* (GQA, 128). 1. *Kalamushlar kabob bo'ldi* (AMK,62).

Gaplardagi *was fainted, kabob bo'ldi* birikmalari NP1 o'rnidagi ot bilan ifodalangan *Beloxi, Kalamushlar* kabi elementlarning holatini ifodalaydi. Shuning

¹ Генюшяне Э.Ш. Соотношения пассива и статива в литовском языке. // Сб. Лингвистические исследования. - ч. I. - Москва, 1973. - С. 59.; Плоткин В.Я. Грамматические системы в английском языке. - Кишинев:

uchun ham *was fainted*, *kabob bo'ldi* elementlari stativ sintaksemalar deb tan olinadi.

Ingliz va o'zbek tillarida stativ va aktiv sintaksemalarni farqlashda ko'pgina qiyinchiliklar mavjud bo'lib, mazkur masala maxsus izlanishni talab qiladi. Ingliz tili materiali asosida M.M. Boldirevaning hisoblashicha, *to be + participle II* gaplarda NP2 o'rnida kelganida butunlay ikki ma'noni ifodalashi mumkin: harakat va holat. Uning fikricha, harakat ma'nosini ifodalaganda *to be + participle II* subordinativ aloqa bazasida to'ldiruvchi bilan birikib, harakat bajaruvchi shaxs *by* predlogi bilan birikib keladi. Qachonki, *to be + participle II* holatni ifodalasa, u holda harakat bajaruvchi shaxsni *by* predlogi bilan gap tuzilishiga kiritib bo'lmaydi.¹

Stativ va aktiv sintaksemalarni bir-biridan farqlashda O.A.Pismennaya shunday yozadi: «NP2 o'rnida kelgan prosessual stativ sintaksema subordinativ aloqa bazasida faqat ravishli elementlar bilan bog'lanishi mumkin. Uning asosiy farqi prosessual aktiv sintaksema kabi obyekt elementlari bilan bog'lanmaydi».² Lekin, ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan prosessual aktiv sintaksema subordinativ sintaktik aloqa bazasida ravishli elementlar bilan bog'lanishi mumkin: 2. *Riley Anderson goes there* (EHF,59).

Stativ va aktiv sintaksemalarni bir-biridan farqlashda quyidagilar asos bo'la oladi: stativ sintaksema subordinativ aloqa asosida lokativ sintaksema bilan bog'lanishi mumkin, prosessual aktiv sintaksema esa lokativ allativ hamda lokativ ablativ sintaksemalar bilan bog'lanadi.³

¹ Болдырова М.М. Сочетания *to + Participle II* со значением результативного состояния в современном английском языке. – В кн.: Учен. зап. МГПИ т. 59. – Москва, 1971. – С. 35.

² Письменная О.А. Двухядерные безглагольные предложения в современном английском языке. Дисс. канд. филол. наук. – Киев, КГПИ, 1975. – С. 104.

³ Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. – Ленинград: Наука. Ленинград. отделения, 1976. – С. 106

N.Ye.Voskresenskayaning talqin etishicha, prosessual stativ sintaksema gaplarda NP2 o'rnida kelganda ularga daraja ifodalovchi ravishlardan *intently*, *rapidly* kabi elementlarni qo'shib bo'lmaydi.¹

Masalan: *I happened to tell him* → *I happened intently to tell him*.

O.Ye.Filimonovaning fikricha, stativlikni ifodalovchi elementlar turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin. Faqat bu holat ularning gapda qaysi o'rinda kelishiga bog'liq.²

Umuman olganda, ingliz tilida prosessual stativ sintaksema gapda NP2 o'rnida keladigan element *to be* ning shaxsli shakli va participle II bilan ifodalanganda o'tgan zamon sifatdash shakli asosan o'timsiz fe'llar bilan ifodalanadi va bunday gaplar tuzilmasiga *by* predlogi va harakat bajaruvchi subyektni qo'shimcha qilish transformasiyasi yordamida kiritib bo'lmaydi. Bu masala o'zbek tilida ham maxsus izlanishni talab qiladi. Faktik materiallarning isbotlashicha, o'zbek tilida ham prosessual stativ sintaksema : a) fe'lining majhul nisbati yordamida: *Birida qurt, birida bolasi kasalga chalindi* (AMK, 57); b) ravishdoshning – (i) *b+qo'ymoq* yordamchi fe'li: *Payl uni osiltirib qo'ydi* (GYuA, 181); v) ravishdoshning – (a) *b+qo'ymoq* yordamchi fe'li: *Jo narsalarni joylab qo'ydi* (GYuA, 124).

Yuqorida keltirilgan misollarning guvohlik berishicha, ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan prosessual stativ sintaksema transformasiya depassivizasiyaga tushmaydi. Yadro predikativ aloqa asosida NP1 o'rnida kelgan jonli otlar yoki kishilik olmoshlari bilan ifodalangan elementlarning holatini ifodalaydi. O'zbek tilida esa NP2 o'rnida kelgan elementlar transformasiya passivizasiyaga tushadi:

Payl uni osiltirib qo'ydi → *U Payl tomonidan osiltirib qo'yildi*;

Jo narsalarni joylab qo'ydi → *Narsalar Jo tomonidan joylab qo'yildi*.

¹Воскресенская Н.Е. Предложения с ядерным дважды предцизируемым компонентом в современном английском языке: ... дис. канд. филол. наук. – Ленинград, 1976. – С. 122.

²Филимонова О.Е. Стативная синтаксема в английском предложении. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград: Лоия, 1978. – С. 11-12.

Ko'rinishicha, *Payl, Jo* elementlari "harakat bajaruvchi, ya'ni substansial agentiv sintaksema bo'lsa, *uni, narsalarni* elementlariga esa *osiltirib qo'ydi, joylab qo'ydi* komponentlariga nisbatan holat ma'nosi yuklatilgan. Shunday qilib, o'zbek tilida prosessual stativ sintaksema yadro predikativ aloqa asosida substansial agentiv sintaksema bilan birikib kelsa, subordinativ aloqa bazasida holat ma'nosi yuklatilgan obyekt sintaksema bilan bog'lanishi mumkin. Ingliz tili esa bundan mustasno. O'zbek tilida ham shunday fe'llar borki, ular *hayajonlanmoq, to'lqinlanmoq, iztirob chekmoq, bezovta bo'lmoq, qayg'urmoq, hasrat (g'am) chekmoq, ma'yuslanmoq, ranjimoq, o'pka qilmoq, xursand bo'lmoq, sevinmoq, quvonmoq, g'azablanmoq, sog'inmoq, jahli chiqmoq, achinmoq* fe'llari bo'lib, ular gapda NP2 o'rnida kelganda prosessual stativ sintaksemani ifodalaydi.

3. 6. Ekzistensial sintaksemalar tipologiyasi

Mazkur sintaksema ingliz tilida *to be* fe'lining shaxsli shakli yordamida ifodalanadi: 1. *The Mitty Crowd is in there (PAP, 443)*

2. *June has been here (GFS, 81)*

Gaplardagi NP2 o'rnida kelgan elementlar *is, has been* na harakatni, na holatni ifodalaydi. A.N. Smirniskiyning fikricha, «... *is* fe'lini kesim deb atashga hеч qanday asos yo'q, chunki uning leksik ma'nosi sezilarli emas va noaniq. Bu fe'l xuddi "*He is a doctor*" gapidagidek yordamchi so'z vazifasini bajarmoqda. *He is here*, hamda *He is doctor* gaplarida kesim tuzilishiga ko'ra murakkablikka ega, u bog'lama fe'l hamda o'rinni ifodalovchi komponentdan tashkil topgan. Lekin gaplarda semantik jihatdan ikkinchi komponent *here* kesim bo'ladi, chunki u predikatlik vazifasini bajarmoqda". Kesimning bunday turini A.N.Smirniskiy hol kesim deb atashni taklif qiladi.¹

O'zbek tili materialida esa, bunday holat boshqacharoq ko'rinishga ega :

3) *Hammasi shu yerda. (MRS, 82)*

4) *Men institutdaman. (MRS, 106)*

¹ Смирницкий А.Н. Синтаксис английского языка. -М.: Изд-во лит.на иностр.яз., 1957. - С. 114-115.

5) *U maktabda. (GYuA, 29)*

Yuqorida keltirilgan gaplardagi *shu yerda, institutdaman, maktabda* elementlari kesim deb belgilanadi. A.G'ulomov, M.Asqarovalarning ta'kidlashlaricha, ot bilan ifodalangan kesim, kesim o'rnida kelgan ot qaratqich va tushum kelishiklaridan tashqari predikativlikni ifodalab, kesim vazifasini bajaradi. Shunday qilib, predikativlik affikslarini oluvchi otlar gap tuzilmasida kesim vazifasida keladi.¹ Lekin, bu gaplardagi *shu yerda, institutdaman, maktabda* kabi so'zlar kesim deb tan olinishiga ishonish qiyin. Chunki, bu gaplar o'tgan yoki kelasi zamon shakllariga transformasiya qilinganda boshqacha hosila paydo bo'ladi:

Hamma shu yerda → *Hamma shu yerda edi;*

Hamma shu yerda → *Hammasi shu yerda bo'ladi;*

Agar gaplarning *there, here, shu yerda, institutdaman, maktabda* kabi elementlari bevosita ishtirokchilarga ajratilganda ularning *is, has been, edi, edim, bo'laman, bo'ladi* kabi fe'l shakllari bilan bo'lgan sintaktik aloqalarini aniqlash mumkin. Bu albatta, ularning subordinativ aloqa yordamida o'zaro bog'langanligini ko'rsatadi. Buni isbotlash uchun qo'shimcha qilish transformasiyasi yordamida *work, o'qiyman* so'zlarini *The Mitty Crowd is in there,* va *Men institutdaman* gaplari tarkibiga kiritsak, *The Mitty Crowd works, Men institutda o'qiyman* gaplari hosil bo'ladi va *there, institutda* elementlari oldingi gaplardagidek lokativ sintaksema bo'lib qolaveradi. Lekin *works, o'qiyman* elementlari sintaktik va semantik jihatdan olinganda prosessuallikni ifodalaydi. Agar ularda aktiv harakat ifodalangan bo'lsa u holda *is, edi, edim, bo'laman, bo'ladi* elementlari ekzistensiallikni (mavjudlikni) anglatadi. Shuning uchun ham *The Mitty Crowd, June, hammasi, men, u* elementlari substansial ekzestensial sintaksema hisoblanadi. Sintaksemaning *is, has been, edi, edim, bo'laman, bo'ladi* elementlari ekzistensiallikning variantlari sanalanadi. O'zbek tilida keltirilgan *men*

¹ Gulomov A., Askarova M. Hozirgi ўzbek adabiy tili. Sintaksis. — Toshkent: Ўқитувчи, 1987. 87 б.

institutdaman, hammasi shu yerda, u maktabda kabi gaplarda ekzistensiallik grammatik jihatdan eksplisit tarzda ifodalanmagan, ya'ni ular nol variantga teng yoki ekzistensiallik shaxs qo'shimchalariga yuklatilgan. Bu holat tarjimada ham ko'zga yaqqol tashlanadi:

The grocery was below (JLM, 44).

Do 'kon pastda edi (JLM, 32).

Uchinchi bobga xulosa

Mazkur bobda ingliz va o'zbek tillarida bosh bo'laklardan kesim o'rnida kelgan sintaktik birliklarning qiyosiy tipologik jihatlarini o'rganilib, ulardagi izomorflik va allamorflik xususiyatlari aniqlandi. Mazkur bobning dolzarbligi gapdagi sintaktik birliklarni tahlil qilishda aniq lisoniy mrtodlardan foydalanildi.

Ingliz va o'zbek tillarida kesim masalasini an'anaviy grammatikalarda tasniflashidan farqli o'laroq, komponent va sintaksemalarga ajratib, qiyosiy tipologik jihatdan tahlil qilingan. Komponentlarga ajratib tahlil qilishda asosan gapdagi birliklar orasidagi o'zaro sintaktik aloqalar yunksion modellarda berilib, har bir elementning differensial sintaktik belgilari va ularning morfologik ifodalanish shakllari component modellar orqali ko'rgazmali ravishda yoritilgan. Kesim vazifasidagi elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda gapda ishtirok etgan har bir elementning differensial sintaktik-semantik belgilari, ularning ma'lum sintaktik aloqalar asosida qanday sintaksemalar bilan bog'lanishi va ularning variantlari sintaktik sathda qiyosiy tipologik jihatdan organib chiqildi.

Ma'lumki, sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda substansial, prosessual va kvalifikativlik kabi kategorial differensial sintaktik-semantik belgilarga asoslanib ish ko'riladi. Biroq, magistrlik dissertasiyaning mazkur bobida kesim vazifasidagi birliklar prosessual sintaksemalar asosida o'rganib chiqildi. O'z navbatida, ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan birliklar ushbu kategorial prosessual sintaksemalar asosida uning bir nechta nokategorial belgilari aniqlandi. Jumladan, har ikkala tillarda ham aktiv modal negative, aktiv negative, aktiv stativ, aktiv modal, aktiv stativ negative kabilardir.

XULOSA

Mazkur dissertasiya ingliz va o'zbek tillaridagi kesim o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini sintaktik qatlamda tahlil qilishga bag'ishlanadi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishdan asosiy maqsad, har ikkala tildagi gaplarda kesim o'rnida kelgan elementlarning gapdagi tutgan o'rniga ko'ra semantik maydonini aniqlashdan iborat. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilish avvalo uchta kategorial sintaktik-semantik belgilar (substansiallik, kvalifikativlik, prosessuallik) asosida olib boriladi. Xususan, ular bir-biridan farqlanadi, ularning bazasidagi nokategorial belgilar, yadro predikativ va subordinativ aloqalar yordamida qanday nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilar bilan bog'lanishi aniqlandi va har ikkala tilda ularning ifodalanish variantlari berildi. Shularni e'tiborga olib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan kategorial belgilardan prosessual sintaksema alohida nokategorial belgilardan aktivlik, ya'ni negativlik, deriktivlik, modallik, modallik negativlik, stativlik, ekzistensiallik aniqlangan

2. Aktivlik sintaksemasi ingliz tilida yadro predikativ aloqa asosida agentivlik, agentivlik-negativlik, elektiv-agentivlik kabi sintaksemalar bilan bog'lansa, o'zbek tilida esa yadro predikativ aloqa asosida substansial-agentiv sintaksema bilan bog'lanadi.

3. Aktivlik sintaksemasi gaplarda kesim o'rnida kelganda ingliz tilida o'timli, o'timsiz hamda terminativ va noterminativ fe'llarning shaxsli shakllari va fe'llarning analitik shakllari jumladan, *be + PI; have + PII; shall / will + infinitiv; should / would + infinitiv; have + been - PI* kabi shakllar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida fe'lning shaxsli shakli, majhul nisbati, buyruq shakli, analitik shakli xususan, *V+ -moqda edi, fe'lning ravishdosh shakli quyurmoq, olmoq, yubormoq, kelmoq* kabi ko'makchi fe'llar yordamida ifodalanadi.

4. Ingliz tilida aktiv-negativ sintaksemalar harakatni ifodalovchi fe'ldan oldin *do, did, shall / will, should / would, to be* fe'llarining shaxsli shakli, *have / had* yordamchi fe'llariga *not* inkor yuklamasini yoki harakat fe'lining bo'lishli

shaklidan oldin *never* payt ravishini qo'shish orqali ifodalansa, o'zbek tilida *-ma* affiksining asosiy fe'l o'zagiga qo'shilishi bilan, asosiy fe'lga *emas* to'liqsiz fe'lining qo'shilishi bilan hamda fe'llar *-gan, -yot + -gan* affikslari bilan berilganda *yo'q* so'zini qo'shish bilan ifodalanadi.

5. Har ikkala tilda ham aktiv-negativ sintaksema gaplarda kesim o'rnida kelganda yadro predikativ aloqa asosida substansial agentiv sintaksema bilan birikadi.

6. Aktiv derikativ sintaksema ingliz tilida asosan *to be + Participle II* shaklida ifodalanadi. O'zbek tilida esa fe'llarga *-(i)l, -(i)n* affikslarini qo'shish bilan yasaladi. Bu sintaksema har ikkala tillarda ham yadro predikativ aloqa bazasida substansial obyektiv sintaksema bilan bog'lanadi. Subordinativ aloqa bazasida ingliz tilida komitativ, harakatning bajarilish usuli, komparativ, obyektiv-aktiv, lokativ, lokativ-allativ sintaksemalar bilan, o'zbek tilida esa kvalitativ, lokativ-allativ sintaksemalar bilan birikib kelishi mumkin.

7. Aktiv modal sintaksema ingliz tilida *must + infinitiv, must have + Ven, have to + infinitiv, ought to + infinitiv, shall / will have to + infinitiv, was / were + infinitiv, can / could + infinitiv, to be able to + infinitiv, may / might + infinitiv* kabilar yordamida ifodalansa, o'zbek tilida esa fe'l + *kerak, lozim, shart, majbur, mumkin* modal so'zlari hamda *chiqa olmoq, qila olmoq* kabi birikmalar yordamida ifodalanadi. Aktiv modal negativ sintaksema yuqorida ingliz tilida qayd etilgan modal fe'llarga *not* inkor yuklamasining qo'shilishi bilan ifodalansa, o'zbek tilida esa infinitiv + *kerak, lozim, shart, mumkin + emas* yordamida ifodalanadi. Bu sintaksemalar yadro predikativ aloqa asosida har ikkala tillarda ham substansial agentiv sintaksema bilan bog'lanadi. Ular subordinativ aloqa bazasida ingliz tilida lokativ, lokativ-allativ, obyektiv, obyektiv-aktiv, obyektiv-negativ, obyektiv-agentiv, lokativ-indefinit, stativ yuklatilgan obyektiv, temporal sintaksemalar bilan biriksa, o'zbek tilida esa obyektiv, lokativ, final, komparativ, obyektiv-possessiv sintaksemalar bilan bog'lanishi mumkin. Mazkur sintaksemalardan tashqari, fe'l bilan ifodilangan stativlik, ekzestensiallik sintaksemalar ham aniqlandi.

Umuman olganda ingliz va o'zbek tillarida kesimni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish gapdagi sintaktik birliklarning sistem munosabatlarini aniqlash bilan birga, ularning o'zaro munosabatlarini aniqlashga ham yordam beradi. Ilmiy tadqiqotning natijalaridan gapdagi har qanday o'rinda kelgan sintaktik birliklarni yaxlit bir til materialini asosida yoki qiyosiy tipologik jihatdan qardosh bo'lmagan tillar sistemasini tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADĀBIYOTLAR RO'YXATI

I. Nazariy manbalar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Шарк нашриёти. – Т.: Ўзбекистон, 1999-230 б.
2. Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. Грамматика английского языка. – М.: Высш. школа, 1965. – С. 129.
3. Болдырова М.М. Сочетания to + Participle II со значением результативного состояния в современном английском языке. – В кн. : Учен.зап. МГПИ т. 59. – Москва, 1971. –С. 35.
4. Большой англо-русский словарь. /Под руков. Гальперина И.Р.
5. Буронов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – С. 33.
6. Буслаев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. – Москва, 1968. – С.8.
7. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. Тошкент, Ўқитувчи, 1973. 283 б.
8. Воскресенская Н.Е. Предложения с ядерном дважды предидируемым компонентом в современном английском языке: ... дис. канд. филол. наук. – Ленинград, 1976. – С. 122.
9. Генюшняне Э.Ш. Соотношения пассива и статива в литовском языке. // Сб. Лингвистические исследования. ч. I. –Москва, 1973. –С. 59.; Плоткин В.Я. Грамматические системы в английском языке. –Кишинев:
10. Городецкий. Б.Ю К проблеме семантической типологии. . Из-во МГУ. 1969, стр. 125-126
11. Грамматика русского языка. Том I. М.: Изд-во АН СССР, 1952. – С. 48-50.
12. Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка. –М.: Высшая школа, 1981. –285 с.

13. Каушанская В.Л., Ковнер Р.Л., Кожевникова О.Н., Прокофьева Е.Ф., Райнес З.М., Сквирская С.Е., Цырлина Ф.Я. Грамматика английского языка. –Л.: Просвещение. Ленингр. отделение, 1973. – 319 с.
14. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. –Л.: Наука, 1972. – С. 39-76.
15. Качалова К.Н., Израйлович Е.Е. Практическая грамматика английского языка. Бишкек. Туркестан, 2004. –672 с.
16. Кольшанский Г.В. Логика и структура языка. –М.: АН СССР, 1965. – С. 143.
17. Мешанинов И.И. Члены предложения и части речи. –Москва:, 1978. – С. 292.
18. Мигирин В.Н. Отношения между частями речи и членами предложения; «Науч. докл. высш. школы филол.науки». Москва, 1959. -№1. – С. 37.
19. Москва: Советская энциклопедия, 1972. I-II т. – С. 394,417,422.
20. Мухин А.М. Функциональный анализ синтаксических элементов (на материале древнеанглийского языка). –Москва, Ленинград: Наука, 1964. – С. 72-73.
21. Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. –Ленинград: Наука. Ленинград. отделения, 1976. – С. 106.
22. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари. Жн.: Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1988. - №5. 22-23 б.
23. Петунина И.А. Обстоятельства в английских стативных и пассивных предложениях. // Сб. Лингвистические исследования. – Москва, 1980. – С. 152.
24. Петунина И.А. Английский субъектный результатов (статив) и интранзитивный перфект. // Сб. Структура и значения предложения. – Москва: Акад.Наук СССР, ин-т языкознания, 1982. –С.177.

- 25.Пешковский А.А. Русский синтаксис в научном освещении. –М.: Учпедгиз, 1956. – С. 187.
- 26.Письменная О.А. Двухдёрные безглагольные предложения в современном английском языке. Дисс. канд. филол. наук.- Киев, КГПИ, 1975. – С.104.
- 27.Потебнян А.А. Из записок по русской грамматике. Часть 1-2. –М.: Учпедгиз, 1958. – С. 11.
- 28.Смирницкий А.Н. Синтаксис английского языка. –М.: Изд-во лит.на иностр.яз., 1957. – С. 114-115.
- 29.Сепир Э. Положения лингвистики индоевропейских языков. В кн.: Звегенцев В.А. История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях, ч. II. –М. 1960. -С. 175.
- 30.Усмонов У.У. Непольные предложения в английской диалогической речи. Дисс. ... канд. филол. наук.- Киев: КГУ, 1983. – С. 38-40.
- 31.Филимонова О.Е. Стативная синтаксема в английском предложении. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-Ленинград: Лоия, 1978. – С. 11-12.
- 32.Шахматов А.А. Синтаксис русского языка (2-е изд.), –Ленинград: Учпедгиз, 1941. –С. 25.
- 33.Ўзбек тили грамматикаси. II том, -Тошкент: Фан, 1976. –560 б.
- 34.Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошекнт: Ўкитувчи, 1987. 87 б.
- 35.Ҳожиев А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973. 104 б.
- 36.David I.Crystal. Prosodic Systems and Intonation in English. 1919, p.31-32
- 37.Ilyish B.A. The structure of Modern English. –Л.: Просвещение, 1971. -366 с.
- 38.Leech N. Meaning and the English verb. –London : Longmans, 1971. – P. 4-5
- 39.Miller I.E. Stativ verbs in Russian// Foundations of Language, 1970. -№4. V. 6. –P. 493-495.
- 40.Robins R.H. Ancient and Mediaeval Grammatical Theory in Grammar. London, 1951, p. 328.

41. <http://syntagma.h1.ru/nau/article46.htm>.

II. Badiiy manbalar:

Matnlar:

1. Carter D. Fatherless Sons. - Moscow. Foreign Language. Publishing House. 1959. -606 p.
2. Greene G. The Quite American. 2 d. edition. - Moscow. Foreign Language. Publishing House. 1963. -267 p.
3. Hemingway E. A Farewell To Arms. -Leningrad, 1971. - 263s.
4. London J. Martin Eden. - Moscow, Foreign Language. Publishing House.1960. -438p.
5. Priestley. J. Angel Pavement. - Moscow. Progress. 1974, -504 p.
6. Shaw. B. Pygmalion. -Moscow. Higher School. -1972. -140 p.
7. Snaw Ch. P. Time of Hope. -Moscow, Progress Publishers. 1964. -388p.
8. Somerset Maugham W. The Painted Veil. Moskva, 1981. -247p.
9. Synge. I.M. The Aran Ireland New York. H. Language. -1935. -187 p.
- 10.Theoder Dreiser. Jenny Gerhart. -Moscow, Progress Publishers. 1965. -358p.
- 11.Voynich. E. The Gadfly - Moscow. Foreign Language. Publishing House. 1958. -336 p.
- 12.Abdullaxonov J. Borsa kelmas. -Toshkent,1978. -310 b.
- 13.Asad Dilmurod. Ko'chki (qissalar va hikoyalar). -Toshkent, 1991. -396 b.
- 14.Asqad Muxtor. Kumush tola. Jn. : Sharq yulduzi - Toshkent № 11. 1987. 13-66 b.
- 15.Voynich E. So'na. - Toshkent, O'zdamnashr. 1956. - 310 b.
- 16.Grim Grin. Yuvosh amerikalik. T.: 1963 yil -206 b.
- 17.Zvereva Ye.N., Eber I.G. Brush Up Your Grammar.(Sbornik korotkix rasskazov i dialogov na ang-m yazyke).- Leningrad, 1965. - 122 s.
- 18.Komil Yashin. Tanlangan asarlar T.: 2-tom, 1974, -438 b.
- 19.London J. Martin Iden. -Toshkent, 1968. -431 b.

20. Marax Rusli. Sevgi fojeasi. - Toshkent, 1964. - 280 b.
21. Murod Muxammad Do'st. Galatepaga qaytish. Toshkent, 1983, -240 b.
22. Norqobilov N. Yuzma-yuz (qissalar). - Toshkent, 1993. -176 b.
23. Orif Farmon. Ko'ngil ko'chasi (hajviy hikoyalar va qissalar). Mirzarahimov M. Kuygan kechalar. - Toshkent, 1990. -240 b.
24. Sadriddin Ayniy. Doxunda. - Toshkent, O'zdnashr. 1956. - 164 b.
25. Teodor Drayzer. Jenni Gerxart. Toshkent: 1982. -328 b.
26. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom (qissalar). - Toshkent, 1994. -464b.
27. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. - Toshkent, 1994. -270 b.
28. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. - Toshkent, 1999. -496 b.
29. Shuhrat. Oltin zanglamas. - Toshkent, 1995. -400 b.
30. Shukrullo. Tirik ruhlar. - Toshkent, 1999. -239 b.
31. Ernest Xemenguey. Alvigo, qurol. Toshkent: 1986. -378 b.
32. Qodirov P. Yulduzli tunlar. - Toshkent, O'zbekistan. 1990. - 463 b.

Qisqartmalar ro'yxati :

1. BUG - Zvereva Ye.N., Eber I.G. Brush Up Your Grammar.(Sbornik korotkix rasskazov i dialogov na ang-m yazyke).- Leningrad, 1965. - 122 s.
2. CFS - Carter D. Fatherless Sons. - Moscow. Foreign Language. Publishing House. 1959. -606 p.
3. CST - Snow Ch. P. Time of Hope.-Moscow, 1964. -388p.
4. EHF - Hemingway E. A Farewell To Arms. -Leningrad, 1971. - 263s.
5. GQA - Greene G. The Quite American. 2d edition. - Moscow. Foreign Language. Publishing House. 1963. -267 p.
6. JLM - London J. Martin Eden. - Moscow, 1960. -438p.
7. PAP - Priestley. J. Angel Pavement. - Moscow. Progress. 1974, -504 p.
8. SAI - Synge. I.M. The Aran Ireland New York. H. Languaga. -1935. -187 p.
9. SMP - Somerset Maugham W. The Painted Veil. Moskva, 1981. -247p.
- 10.SP - Show. B. Pygmalion. -Moscow. Higher School. -1972. -140 p.

- 11.TDJ - Theoder Dreiser. Jenny Gerhart. –Moscow “Progress Publishers”, 1965. 358 p.
- 12.VG - Voynich. E. The Gadfly - Moscow. Foreign Language. Publishing House. 1958. –336 p.
- 13.ADK - Asad Dilmurod. Ko'chki (qissalar va hikoyalar). –Toshkent, 1991. –396 b.
- 14.AMK - Asqad Muxtor. Kumush tola. Jn. : Sharq yulduzi – Toshkent № 11. 1987 y. 13-66 b.
- 15.VS - Voynich E. So'na. – Toshkent, O'zdnashr. 1956. - 310 b.
- 16.GYuA - Grim Grin. Yuvosh amerikalik. T.: 1963 yil –206 b.
- 17.JAB - Abdullaxonov J. Borsa kelmas. –Toshkent,1978. -310 b.
- 18.JLM - London J. Martin Iden. –Toshkent, 1968. –431 b.
- 19.KYa - Komil Yashin. Tanlangan asarlar T.: 2-tom, 1974, -438 b.
- 20.MMG - Murod Muxammad Do'st. Galatepaga qaytish. Toshknt: 1983, -240 b.
- 21.MRS - Marax Rusli. Sevgi fojeasi. -Toshkent, 1964. - 280 b.
- 22.NNYu - Norqobilov N. Yuzma-yuz (qissalar). –Toshent, 1993. –176 b.
- 23.OFK - Orif Farmon. Ko'ngil ko'chasi (hajviy hikoyalar va qissalar). Mirzarahimov M. Kuygan kechalar. –Toshkent, 1990. –240 b.
- 24.PQQ - Qodirov P. Tanlangan asarlar. T. 2. Qora ko'zlar. –Toshkent, 1978. –416 b.
- 25.PQYu - Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent, O'zbekiston. 1990. - 463 b.
- 26.SAD - Sadriddin Ayniy. Doxunda. – Toshkent, O'zdnashr. 1956. – 164 b.
- 27.TDJ - Teoder Drayzer. Jenni Gerxart. Toshkent: 1982. –328 b.
- 28.TMG - Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. –Toshkent, 1999. –496 b.
- 29.TMD - Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. –Toshkent, 1994. –270 b.
- 30.TMO - Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom (qissalar). –Toshkent,1994.–464b.
- 31.ShOZ - Shuhrat. Oltin zanglamas. –Toshkent, 1995. –400 b.
- 32.ShTR - Shukrullo. Tirik ruhlar. –Toshkent, 1999. –239 b.
- 33.EXA - Ernest Xemenguey. Alvado, qurol. Toshkent: 1986. –378 b.

ISHDA FOYDALANILGAN SHARTLI BELGILAR

1. Komponentlarni ifodalovchi belgilar

HNP2- Yadro predikativlik II o'rnida kelgan uyushiq bo'lak,

$\overline{\text{ND}}$ – Yadro bo'lmagan tobe komponent,

NP1 - Yadro predikativlik I (ega),

$\overline{\text{NP1}}$ - Yadro bo'lmagan predikativlik I,

NP1P1- Yadro bo'lgan ikki karra predikativlik I,

NP2 - Yadro predikativlik II (kesim),

$\overline{\text{NP2}}$ - Yadro bo'lmagan predikativlik II.

2. Sintaksemalarning modeldagi belgilari

Abl- ablativ (chiqish kelishigi).

Ac- aktivlik (sof harakati),

Ag- agentivlik (harakat bajaruvchi),

All- allativ (jo'nalish kelishigi),

Cm- komitativ (birgalik),

Cmp- komparativlik (qiyoslash),

Dr- deriktiv (yo'naltirilgan)

El- elektivlik (tanlov),

Ex- ekzistensiallik (borlik, mavjudlik),

Fn- final (maqsad),

Id1- identifikasiyalashgan,

Id2- identifikasiyalashtiruvchi,

Inf- indefinit (noaniqlik),

Ins- instrumentallik (vosita),

Lc- lokativ (o'rin-joy),

Lm- limitativlik (cheklangan, chegaralanganlik),

Md- modallik,

Mn- harakatning bajarilish usuli,

Ng- negativlik (inkor),

Ob- obyektlik,

Pr- prosessuallik (harakat yoki holat),

Ps- posessivlik (egalik),

Qlf- kvalifikativlik,

Qlt- kvalitatiflik (sifat),

Qun- kvantitativlik (son), Sb- substansiallik (ot yoki shaxs ma'nosi),

St- stativlik (holat),

Tm- temporallik (payt).